



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SPORT VAZIRLIGI

JISMONIY TARBIYA VA SPORT
BO'YICHA MUTAXASSISLARNI
QAYTA TAYYORLASH VA
MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI
SAMARQAND FILIALI

**"1.2. ISH FAOLIYATIDA RAQAMLI
TEXNOLOGIYALARDAN
FOYDALANISH"**
moduli bo'yicha

O'QUV-USLUBIY MAJMUA

**"Kasb-hunar maktablari jismoniy tarbiya
fani o'qituvchilari"**
malaka oshirish yo'nalishi uchun

Samarqand - 2025

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SPORT VAZIRLIGI**

**JISMONIY TARBIYA VA SPORT BO'YICHA MUTAXASSISLARNI
QAYTA TAYYORLASH VA
MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI
SAMARQAND FILIALI**

**ISH FAOLIYATIDA RAQAMLI
TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH**

moduli bo'yicha

"Jismoniy tarbiya fani o'qituvchisi"

Kasb-hunar maktablari jismoniy tarbiya fani o'qituvchilari
malaka oshirish kursi uchun

O'QUV-USLUBIY MAJMUA

Samarqand – 2025 yil

Mazkur o‘quv-uslubiy majmua O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar siyosati va sport vazirligi tomonidan 2023-yil 2-dekabrdan tasdiqlangan namunaviy o‘quv reja va o‘quv dasturiga muvofiq ishlab chiqilgan.

Tuzuvchilar:

A.K.Ishonkulov

Samarqand filiali “Sport psixologiyasi, ijtimoiy-gumanitar va tabiiy-ilmiy fanlar” kafedrasi dotsenti v.v.b.

Taqrizchilar:

N.Abdullayeva

- TATU Samarqand filiali “Kompyuter tizimlari” kafedrasi dotsenti, p.f.b.f.d.(PhD)

Z.Saydullayev

- Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti Samarqand filiali “Sport psixologiyasi, ijtimoiy-gumanitar va tabiiy-ilmiy fanlar” kafedrasi dotsenti v.v.b.

O‘quv-uslubiy majmua Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti Ilmiy Kengashining 2024-yil 24-dekabrdagi 10-sonli qarori bilan nashrga tavsiya qilingan.

MUNDARIJA

I.	Ishchi dastur.....	6
II.	Modulda foydalanilgan interfaol ta’lim metodlari.....	14
III.	Nazariy mashg‘ulotlar materiallar	17
IV.	Amaliyy mashg‘ulotlar materiallar	45
V.	Keyslar banki	62
VI.	Glossariy	64
VII.	Testlar banki	70
VIII.	Adabiyotlar ro‘yxati	81



ISHCHI O'QUV DASTURI

1.2.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SPORTNI RIVOJLANTIRISH VAZIRLIGI

JISMONIY TARBIYA VA SPORT BO'YICHA MUTAXASSISLARNI
QAYTA TAYYORLASH VA MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI



"Tasdiqlayman"

Institut rektori

I.Tursunaliyev

“29” dekabr 2022-yil

ISH FAOLIYATIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

moduli bo'yicha

ISHCHI O'QUV DASTURI

"Jismoniy tarbiya fani o'qituvchisi"
malaka oshirish kursi uchun

Toshkent – 2022

Modulning ishchi o‘quv dasturi 2022-yil 29- dekabrda O‘zbekiston Respublikasi

- sportni rivojlanirish vazirligi tomonidan tasdiqlangan namunaviy o‘quv reja va o‘quv dasturiga muvofiq ishlab chiqilgan.

Tuzuvchilar:

A.Tolametov - “Pedagogika va psixologiya” kafedrasи dotsenti

Taqrizchilar:

I.Normatov - O‘zMU “Axborot xavfsizligi” kafedrasи professori, m-f.f.d., akademik

A. Nuriddinov - Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish institutining Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va masofadan o‘qitishni tashkil etish bo‘limi boshlig‘i

Ishchi o‘quv dasturi “Pedagogika va psixologiya” kafedrasining 2022-yil 29-dekabrda o‘tkazilgan 11-sonli yig‘ilish bayoni bilan tasdiqqa tavsiya qilingan.

Kafedra mudiri

J.Pulatov

Modulning maqsadi va vazifalari

Modulning maqsadi: Tinglovchilarni ish faoliyatida raqamli texnologiyalarni O‘zbekiston Respublikasi milliy iqtisodining ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor munosabatlariga bosqichma-bosqich o‘tishida hamda ilmiy-texnika taraqqiyoti jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy hayotining barcha jabhalarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi yantuqlarini tadbiq qilinishining ta’lim sohasi islohotlаридаги аhamiyati, raqamli texnologiyalar, masofaviy ta’lim, “bulutli texnologiyalar”, vebinar, onlayn ma’ruza, “blended learning”, “flipped classroom” texnologiyalari, ularning asosiy komponentlari va ta’limdagi imkoniyatlari haqida ko‘nikma va malakalarini shakllantirishdan iborat.

Modulining vazifalari:

-Tinglovchilarda O‘zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi iqtisodiy o‘sish va aholining turmush darajasini oshirishning asosiy omili pedagogik faoliyatida foydalanishni;

-Masofaviy ta’lim usullari va texnologiyalari pedagogik faoliyatida foydalanishni;

-Vebinar, onlayn ma’ruza, “blended learning”, “flipped classroom” texnologiyalarini ta’limdagi imkoniyatlari pedagogik faoliyatida foydalanishni;

-Raqamli texnologiyalar, “bulutli texnologiyalar”ni asosiy komponentlari pedagogik faoliyatida foydalanishni;

-Ish faoliyatida raqamli texnologiyalardan foydalanish jarayonida axborot texnologiyalarini joriy qilishning innovatsion usullari kabi bilim, ko‘nikma va malakalarini takomillashtirishdan iborat.

Modul bo‘yicha tinglovchilarning bilimi, ko‘nikmasi, malakasi va kompetensiylariga qo‘yiladigan talablar

“Jismoniy tarbiya va sportda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari” modulini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doiraşida:

Tinglovchi:

-O‘zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi iqtisodiy o‘sish va aholining turmush darajasini oshirishning asosiy omili pedagogik faoliyatida foydalanishni;

-Masofaviy ta’lim usullari va texnologiyalari pedagogik faoliyatida amalda foydalanishni;

-Vebinar, onlayn ma’ruza, “blended learning”, “flipped classroom” texnologiyalarini ta’limdagi imkoniyatlari pedagogik faoliyatida foydalanishni;

-Raqamli texnologiyalar, “bulutli texnologiyalar”ni asosiy komponentlari pedagogik faoliyatida amalda foydalanishni;

-O‘quv dasturining alohida mavzulari doirasida talab etiladigan va ta’lim maqsadlariga erishish uchun zarur bo‘lgan hamda ta’lim jarayonini baholash haqida *bilishi* kerak.

Modul bo'yicha soatlar taqsimoti:

T/r	Modul mavzulari	Tinglovchining o'quv yuklamasi, soatlari					
		Hammasi	Auditoriya o'quv yuklamasi				Mustaqil tayyorgarlik
			Jumladan	Jami	Nazariy	Amaliy mashg'ulot	
1.	O'zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi iqtisodiy o'sish va aholining turmush darajasini oshirishning asosiy omili	2	2	2			
2.	Masofaviy ta'lrim usullari va texnologiyalari	2	2	2			
3.	Vebinar, onlayn ma'ruba, "blended learning", "flipped classroom" texnologiyalarini ta'limdagi imkoniyatlari.	2	2		2		
4.	Raqamli texnologiyalar, "bulutli texnologiyalar"ni asosiy komponentlari	4	2		2		2
Jami:		10	8	4	4		2

NAZARIY TA'LIM MAZMUNI

1- mavzu. O'zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi iqtisodiy o'sish va aholining turmush darajasini oshirishning asosiy omili Reja:

- 1.1. Yangi va raqamli davrda O'zbekiston: o'zgarishlar, ustuvor yo'nalishlar
- 1.2. Raqamli iqtisodiyotning bugungi holati: muammo va yechimlar
- 1.3. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yutuqlarni ta'lim sohasiga tadbiq qilinishi

O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish. Raqamli texnologiyalar iqtisodiy yuksalishning muhim omili. Raqamli iqtisodiyotning bugungi holati: muammo va yechimlar.

2- mavzu. Masofaviy ta’lim usullari va texnologiyalari.

Reja:

- 2.1. Masofaviy ta’limni o‘qitish tizimlari va amaliy imkoniyatlari
- 2.2. Masofaviy ta’lim platformalari va ularidan foydalanib, ta’lim jarayonlarini tashkil etish.

Masofaviy ta’limning turlari. Virtual ta’lim tizimi. Masofaviy ta’limning texnologiyasi. Zamonaviy masofaviy ta’lim asosiy elementlarni.

AMALIY MASHG’ULOTLAR MAZMUNI

1- mavzu. Vebinar, onlayn ma’ruza, “blended learning”, “flipped classroom” texnologiyalarini ta’limdagি imkoniyatlari.

Reja:

- 1.1. Vebinar, onlayn ma’ruza
- 1.2. Vebinarlar translyatsiyasini tashkil etish

Vebinar, onlayn ma’ruza. Veb-seminar, vebinar texnologiyalari yordamida turli mavzudagi muzokaralar, onlayn uchrashuvlar, taqdimotlar, tadbirlarni olib borish imkoniyati. Translyatsiya o’tkazish xizmati. Onlayn translyatsiya. Bepul vebinar o’tkazish usullari. Ko‘p spikerli veb-seminar yoki konferensiya o’tkazish.

2- mavzu. Raqamlı texnologiyalar, «bulutli texnologiyalar»ni asosiy komponentlari

- 2.1. Ta’lim jarayonlarida “bulutli texnologiyalar”dan foydalanish.
- 2.2. Bulutli texnologiyalardan foydalangan holda o‘quv jarayonini takomillashtirish

Ta’lim jarayonlarida bulutli texnologiyalardan foydalanish, bulutli texnologiyalardan foydalangan holda o‘quv jarayonini va axborot ta’lim maydonini rivojlantirish hamda takomillashtirish. Birgalikda kirishni ta’minlash.

Dasturning axborot-metodik ta’minoti

Modulni o‘qitish jarayonida ishlab chiqilgan o‘quv-metodik materiallar, tegishli soha bo‘yicha ilmiy журнallar, Internet resurslari, multimedia mahsulotlari, turli elektron hamda qog‘oz variantdagi manbalardan foydalaniladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarları

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz – Toshkent: "O'zbekiston", 2017. – 592 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild / Sh.M. Mirziyoyev. – Toshkent: "O'zbekiston", 2018. – 592 b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliv bahodir. 2-jild / Sh.M. Mirziyoyev. – Toshkent: "O'zbekiston", 2019. – 400 b.
4. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild / Sh.M. Mirziyoyev. – Toshkent: "O'zbekiston", 2020. – 400 b.

II. Normativ-huquqiy hujjatlar

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi // <http://lex.uz/acts/20596>
2. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi O'RQ-637-son "Ta'lif to'g'risida"gi Qonuni // <https://lex.uz/docs/-5013007>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentini "Axborot – kommunikatsiya texnologiyalari sohasida loyiha boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2017 yil 29 avgustdagqi PQ-3245-sonli Qarori.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 19-fevraldagagi "Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5349-sonli Farmoni.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi 4947-sonli Farmoni.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 21-sentabrdagi "2019-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5544-sonli Farmoni.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2020 yilning 28 apreldagi PQ-4699-sonli Qarori.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni "Raqamli O'zbekiston-2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" 5 oktabr 2020-yil, PQ-6079
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2021-yil 17-fevraldagagi 4996-sonli Qarori.
10. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 15-iyundagi "Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatning rivojlanish holatini reyting bo'yicha baholash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 373-sonli

Qarori.

III. Maxsus adabiyotlar

1. Рязанова З.Г., Янов В.В. Информационные технологии в физической культуре и спорте. Учебное пособие. 2015 г 194 стр.
2. Сабирова Д.А. Мультимедийные системы и технологии. Учебное пособие -Т: ТГЕУ, 2012 г 180 стр.
3. Tolametov A.A., Maxarov T.A., Interaktiv topshiriqlar, testlar, krossvordlar yaratishda «Hot Potatoes» dasturidan foydalanish”, Uslubiy qo‘llanma.-T.: Ilimiyltexnika axboroti-press, 2019.-55 b.
4. Tolametov A.A. Sport metrologiyasi // O‘quv qo‘llanma. T.: Umid Design, 2021.-220b.
5. Tolametov A.A. MS Offise PowerPoint 2010 dasturida ishlash, O‘quv uslubiy qo‘llanma..- T.: Umid Design, 2021.- 96 b.
6. Tolametov A.A. Jismoniy tarbiya va sportda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari //Darslik. T.: Umid Design, 2021.-192 b.
7. Tolametov A.A. Jismoniy tarbiyada zamonaviy axborot- kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish // O‘quv qo‘llanma. T.: Umid Design, 2021.-172 b.
8. Tolametov A.A. Sportda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari// O‘quv qo‘llanma. T.: «Umid Design», 2022. – 254 b.
9. Tolametov A.A., Maxarov T.A., Microsoft Word dasturida ishlash/ –T.: «Umid Design» nashriyoti, 2022. – 122 b.
- 10.Tolametov A.A. Microsoft Excel dasturida ishlash, Uslubiy qo‘llanma, T.: Umid Design, 2022.-63 b
- 11.Sabirova D.A. Multimedia tizimlari va texnologiyalari. O‘quv qo‘llanma. - T: TDIU, 2014.- 195 b.

Elektron ta’lim resurslari

1. <http://gov.uz/>
2. <https://lex.uz>
3. <http://minsport.uz/>
4. <http://sportedu.uz/>
5. <http://my.gov.uz/>
6. <http://lib.sportedu.uz>
7. <http://library.uzdjtsu.uz/>
8. <http://ziyonet.uz/>
9. <http://fikr.uz/>
10. <http://utube.uz/>
11. <http://umail.uz/>
12. <http://google.com/>
13. <http://mail.ru/>

**MODULNI O'QITISHDA
FOYDALANILADIGAN INTERFAOL
TA'LIM METODLARI**

O'QITISH SHAKLLARI

Mazkur modul bo'yicha quyidagi o'qitish shakllaridan foydalilanadi:

- ma'ruzalar, amaliy mashg'ulotlar (ma'lumotlar va texnologiyalarni anglab olish, aqliy qiziqishni rivojlantirish, nazariy bilimlarni mustahkamlash);
- davra suhbatlari (ko'rيلayotgan loyiha yechimlari bo'yicha taklif berish qobiliyatini oshirish, eshitish, idrok qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish);
- bahs va munozaralar (loyihalar yechimi bo'yicha dalillar va asosli argumentlarni taqdim qilish, eshitish va muammolar yechimini topish qobiliyatini rivojlantirish).

II. MODULDA FOYDALANILGAN INTERFAOL TA'LIM METODLARI.

"SWOT-tahlil" metodi

Metodning maqsadi:

Mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo'llarni topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandard tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.



“Muammoli vaziyat” – metodi.

Muammoli vaziyat metodi – o‘quvchilarni muammoli vaziyatga to‘qnash kelishini ta’minlash asosida ularning bilish faoliyatini faollashtirishga asoslanadigan yo‘l. Metodning mohiyati aniq vaziyatni tahlil qilish, baholash va uning yechimi yuzasidan qaror qabul qilishdan iborat.

Muammoli vaziyatlarni hal qilish **bosqichlari**:

1. Muammoli vaziyatni yaratish.
2. Vaziyatni tahlil qilish asosida muammoni qo‘yish.
3. Farazlarni ilgari surish.
4. Yechimni tekshirish.

“Tushunchalar tahlili” metodi


Metodning maqsadi:

Mazkur metod tinglovchilar yoki qatnashchilarni mavzu bo‘yicha tayanch tushunchalarni o‘zlashtirish darajasini aniqlash, o‘z bilimlarini mustaqil ravishda tekshirish, baholash, shuningdek, yangi mavzu bo‘yicha dastlabki bilimlar darajasini tashhis qilish maqsadida qo‘llaniladi. Metodni amalga oshirish tartibi:

- *ishtirokchilar mashg‘ulot qoidalari bilan tanishtiriladi;*
- *o‘quvchilarga mavzuga yoki bobga tegishli bo‘lgan so‘zlar, tushunchalar nomi tushirilgan targatmalar beriladi (individual yoki guruhli tartibda);*
- *o‘quvchilar mazkur tushunchalar qanday ma’no anglatishi, qachon, qanday holatlarda qo‘llanilishi haqida yozma ma’lumot beradilar;*
- *belgilangan vaqt yakuniga yetgach o‘qituvchi berilgan tushunchalarning tugri va tuliq izohini o‘qib eshittiradi yoki slayd orqali namoyish etadi;*
- *har bir ishtirokchi berilgan tugri javoblar bilan uzining shaxsiy munosabatini taqqoslaydi, farqlarini aniqlaydi va o‘z bilim darajasini tekshirib, baholaydi.*

Klaster

Bilimlar omborida jamlanadigan ma'lumotlar





NAZARIY MASHG'ULOT MATERIALLARI

III. NAZARIY MASHG'ULOTLAR MATERIALLAR

1-Mavzu: O‘zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi iqtisodiy o‘sish va aholining turmush darajasini oshirishning asosiy omili

Ma’ruza mashg‘ulotining texnologik xaritasi (1 – mashg‘ulot)

O‘quv soati: 2 soat	Tinglovchilar soni: 20-25 nafar
O‘quv mashg‘ulotining shakli:	Nazariy mashg‘ulot
Ma’ruza rejasи:	<p>1.1. Yangi va raqamli davrda O‘zbekiston: o‘zgarishlar, ustuvor yo‘nalishlar</p> <p>1.2. Raqamli iqtisodiyotning bugungi holati: muammo vayechimlar</p> <p>1.3. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yutuqlarni ta’lim sohasiga tadbiq qilinishi</p>
O‘quv mashg‘ulotining maqsadi:	O‘zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi iqtisodiy o‘sish va aholining turmush darajasini oshirishning asosiy omili pedagogik faoliyatida foydalanishni o‘rganish
Pedagogik vazifalar: - amaliy mashg‘ulot davomida raqamli iqtisodiyotning turlari, ulardan foydalanish o‘rgatish ; - shaxsiy kompyuterdan mustaqil foydalanish ko‘nikmalarini hosil qilish shakllantirish; - zamonaviy axborot texnologiyalarni imkoniyatlarini o‘rgatish;	O‘quv natijalari: Amaliy mashg‘ulotdan so‘ng tinglovchilar bilishi lozim: 1. Raqamli iqtisodiyot uning ma’nosi turlari; 2. Raqamli iqtisodiyotning tashkil etuvchilar haqida; 3. Raqamli texnologiyalar turlari va uning tashkil etuvchilari usullari haqida <i>bilishi</i> kerak.
Ta’lim metodlari:	Amaliy mashg‘ulot, suhbat, munozara, tezkor so‘rov.
Ta’lim vositalari:	Ma’ruzalar matni, kompyuter texnologiyalari, video proektor, prezentatsiyalar.
Ta’lim shakli:	Frontal, guruhlarda ishlash.
O‘qitish shart-sharoitlari:	Texnik vositalardan foydalanishga va kichik guruhlarda ishlashga mo‘ljallangan auditoriya.
Monitoring va baholash.	Nazorat savollari.

1-mavzu. O‘zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi iqtisodiy o‘sish va aholining turmush darajasini oshirishning asosiy omili

Reja:

- 1.1. Yangi va raqamli davrda O‘zbekiston: o‘zgarishlar, ustuvor yo‘nalishlar
- 1.2. Raqamli iqtisodiyotning bugungi holati: muammo vayechimlar
- 1.3. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yutuqlarni ta’lim sohasiga tadbiq qilinishi

Tayanch iboralar: O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish. Raqamli texnologiyalar iqtisodiy yuksalishning muhim omili. Raqamli iqtisodiyotning bugungi holati: muammo va yechimlar.

1.1. Yangi va raqamli davrda O‘zbekiston: o‘zgarishlar, ustuvor yo‘nalishlar.


Deyarli barcha bilim sohalarini tezkor axborotlashtirish har qanday sohadagi mutaxassislar, shu jumladan jismoniy tarbiya va sport sohasi mutaxassislari tomonidan axborot texnologiyalarini egallashga ehtiyoj tug‘diradi. Axborot siklining fanlarini o‘rganish: axborot madaniyati va axborot texnologiyalari - tinglovchiga zamonaviy axborot texnologiyalarining barcha yutuqlaridan foydalanishni va sport faoliyati va matematik bilimlarni taqqoslamaslikni, balki noyob imkoniyatlardan foydalangan holda ularni sintez qilishni o‘rgatishga mo‘ljallangan.

Shu jumladan O‘zbekiston Respublikasining Axborot kommunikatsiya texnologiyalarini yanada rivojlantirish to‘g‘risidagi Hukumat qarorlari, Xalq ta’limi vazirligining me’yoriy hujjatlari qabul qilinib, qaror va farmonlar ijroga yo‘naltirildi.


O‘zbekiston Respublikasi prezidenti Sh. Mirziyoyevning 2018 yil 19 fevraldagagi “AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VA KOMMUNIKATSIYALARI SOHASINI YANADA TAKOMILLASHTIRISH CHORA-TADBIRLARI TO‘G‘RISIDA” gi PF-5349-sonli farmoni qabul qilindi.

Axborot o‘zi nima?

Axborot (lotincha “*informatio*” so‘zidan olingan bo‘lib) tushintirish, xabar berish degan ma’noni anglatadi. Sezgi organlarinimiz orqali qabul qilingan xar qanday signal **AXBOROT deb ataladi**.



Insonda 5 ta sezgi organlari mavjud.



Yuqorida keltirilgan rasmdan ko‘rinib turibdiki, tinglovchi-shogirdlar asosiy axborotni **vizual** (90%) gacha, **audial** bor yo‘g‘i (9%) gacha va atigi **xid, tana va ta’m sezishi** 1% ni tashkil qilinar ekan. Sport trenerlari sifatida bunday ma’lumotlarni bilishimiz zarur.

Axborot bilan ma’lumotni farqi bormi? Albatta. Shakillangan (formalizatsiyalangan) ko‘rinishda taqdim etilgan axborot – **ma’lumot deyiladi**. Demak qabul qilingan axborotga qandaydir sayqal berilsagina u ma’lumotga aylanar ekan.

Axborotlarni saqlash axborot tashuvchidan har xil holatlarda joylashgan, axborotlarni qayd qiladigan ob’ekt mavjudligini talab qiladi.

Axborot tashuvchilari 2 turga bo‘linadi. Ular bir marta foydalanishlik (qog‘oz, termoqog‘oz, fotoqog‘oz, fotolenta, fotoplyonka, perfolenta, perfokarta) va ko‘p marta foydalanishlik (magnit qoplamlari, optik qoplamlari) bilan farqlanadi.



Texnologiya o‘zi nima?

Texnologiya - so‘zi grekchadan tarjima qilinganda **san’at, mahorat, ko‘nikma** kabi ma’nolarni anglatadi. Mohir trener-pedagog bo‘lish uchun zo‘r mutaxassis bo‘lish bilan birlashtiriladi, yuqori darajadagi san’atkor, ko‘nikma va mahoratga ega bo‘lgan ustoz bo‘lishlari talab qilinadi.

Texnologiyani qo‘llash jarayonsiz sodir bo‘lmaydi. Demak, jarayon orqali texnologiya tadbiq etiladi va bajariladi.

Jarayon - deganda qo‘yilgan **maqsadga erishish** borasidagi barcha **harakatlar** majmuasi tushiniladi.

Texnologiya qo‘llash strukturasি



Axborot texnologiyalari nima?

“Axborot texnologiyalari, har qanday ma’lumotlarni qayta ishlashda foydalaniladigan KOMPYUTER va TELEKOMMUNIKATSIYA. Matnlarni tayyorlash, MA’LUMOTLAR BAZAsidan foydalanish va KOMPYUTER TARMOQLARI orqali xabarlarni yuborish tizimi - bularning barchasi axborot texnologiyalaridan foydalanishni talab qiladi. Televizion stansiyalar teletekst xizmatlarini ko‘rsatish uchun axborot texnologiyalaridan foydalanadi”.

“Axborot texnologiyalari - ma’lumotlarni qabul qilish, to‘plash, saqlash, izlash, qayta ishlash va tarqatish tizimi.”

Boshqa talqinlar mavjud. Qanday bo‘lmisin, axborot texnologiyasi nafaqat kompyuter bilan juda ko‘p ishlashni, balki odamning har qanday shaklidagi har qanday ma’lumot bilan ishlashni anglatadi. Ushbu faoliyatning muvaffaqiyati asosan ma’lum bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lgan shaxsga bog‘liq bo‘lib, uning asosini kompyuter fanini mактабда o‘рганиш paytida ko‘pgina mualliflar “operatsion” deb ta’riflaydigan fikrlash uslubining mavjudligiga bog‘liq. Ushbu fikrlash uslubi odamga ma’lumot bilan samarali ishlashi uchun zarur bo‘lgan bir qator o‘ziga xos ko‘nikmalarni beradi: muammoning shartlarini shakllantirish va rasmiylashtirish, muammolarni hal qilish algoritmlarini tuzish va bajarish va boshqalar.

Axborot texnologiya - obyekt, jarayon yoki hodisalar holati haqidagi ma’lumotlarni bir ko‘rinishdan ikkinchi, sifat jihatidan mutloq yangi ko‘rinishga keltiruvchi, ma’lumotlarni qabul qilish, to‘plash va uzatishning vosita va usullari majmuasidan foydalanish jarayonidir. **Informatsion texnologiya**—axborot tizimlar bilan bog‘liqdir.

Axborot tizim - belgilangan maqsadga erishish uchun informatsiyani qabul qilish, uzatish va qayta ishlash, saqlash uchun qo‘llaniladigan usullar, shaxslar va vositalarning o‘zaro bog‘langan majmuasidir.

Tizim (sistema) deganda esa, yagona maqsad yo‘lida bir vaqtning o‘zida ham yaxlit, ham o‘zaro bog‘langan tarzda faoliyat ko‘rsatuvchi bir nechta turdagи elementlar majmuasi tushuniladi.

Global pandemiya boshlanishi bilan raqamli texnologiyalarning roli sezilarli darajada o‘sdi, bu esa raqamli transformatsiyaning, ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlar, jumladan, O‘zbekiston uchun muhimligini ko‘rsatdi.

Haqiqatan ham, raqamli transformatsiya jamiyatni yanada modernizatsiya qilish va milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish salohiyatiga ega. Shu nuqtai nazardan, amalga oshirilayotgan islohotlar, shuningdek, Yangi O‘zbekistonning kelgusi besh yilga mo‘ljallangan Taraqqiyot strategiyasi doirasida barcha asosiy sohalarni raqamlashtirish hamda mamlakatda haqiqiy axborot jamiyatini barpo etishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

O‘zbekiston 2000-yillarning boshlaridanoq axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT)ni rivojlantirish va raqamlashtirishga ustuvor ahamiyat bera boshladi. Jumladan, “2013-2020-yillarda O‘zbekiston Respublikasi Milliy axborot-kommunikatsiya tizimini rivojlantirish kompleks dasturi”, “2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi” hamda “Raqamli O‘zbekiston – 2030” va “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi”da milliy iqtisodiyot,

sanoat va umuman jamiyatda raqamli transformatsiyani amalga oshirishga qaratilgan bir qator chora-tadbirlar ko‘zda tutilgan.

Xususan, mamlakatimiz elektron hukumatining asosiy tizimi – Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (my.gov.uz) ishga tushirilgach, ushbu sohada, shuningdek, davlat boshqaruvida yangi texnologiyalarni joriy etish va raqamlashtirishda salmoqli yutuqlarga erishildi. Natijada, 2022-yilning yanvar oyi holatiga ko‘ra, davlat xizmatlarining 56 foizi my.gov.uz orqali taqdim etilgan bo‘lsa, mazkur elektron hukumat platformasida davlat xizmatlari soni 307 ga yetdi hamda elektron davlat xizmatlaridan 1,3 milliondan ortiq fuqaro foydalangan. Shu bilan birga, O‘zbekistonda internetdan foydalanuvchilarning umumiy soni esa joriy yil boshida 27,2 million yetgan.

Bundan tashqari, o‘tgan davr mobaynida respublikaning AKT tizimlari va raqamli infratuzilmasini takomillashtirish maqsadida sohaga katta miqdordagi investitsiyalar jalb qilindi. Natijada, O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, 2017-2021 yillarda axborot va aloqa sohasida yalpi qo‘shilgan qiymat 2 barobardan ziyod oshib, 2021-yilda 11,8 trillion so‘mga (1 milliard AQSh dollaridan ortiq) ga yetdi.

Shuningdek, O‘zbekistonda IT-parklar tashkil etilgandan buyon sohadagi eksport hajmi 50 barobar oshdi va 46 million AQSh dollariga yetdi. Parkning doimiy rezidentlari soni 147 tadan 500 taga ko‘paydi, 300 dan ortiq yangi kompaniya ochildi hamda 8500 ta yuqori haq to‘lanadigan ish o‘rni yaratildi. Hozirgi kunda IT-parklarda 11 mingdan ziyod yoshlar faoliyat yuritmoqda.

Mamlakatimizda optik tolali aloqa liniyalarining umumiy uzunligi 2017 yildan buyon sezilarli darajada o‘sdi. Masalan, O‘zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi ma’lumotiga ko‘ra, 2017-2022 yillarda bu ko‘rsatkich qariyb 6 barobar oshib, 2022 yilning yanvar oyida optik tolali aloqa liniyalarining jami uzunligi 118 ming kilometrga yetdi. Shuningdek, 2017 yildan boshlab xalqaro ma’lumotlar uzatish tarmog‘ining o‘tkazuvchanlik qobiliyati 28 martaga o‘sib, 64,2 Gbit/s dan 1800 Gbit/s gacha oshdi.

Ta’kidlash joizki, global pandemiya raqamlashtirish va raqamli transformatsiya zaruratini ko‘rsatib, IT sohasidagi dolzarb masalalarni bartaraf etish hamda barqaror rivojlanishni ta’minalash maqsadida O‘zbekistonning raqamlashtirish strategiyasi qayta ko‘rib chiqildi va takomillashtirildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020 yil 5 oktabrdagi farmoniga asosan “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi, shuningdek, 2020-2022 yillarda uni amalga oshirish bo‘yicha “yo‘l xaritasi” tasdiqlandi. Strategiya ikki dasturni: hududlarni raqamlashtirish va tarmoqlarni raqamlashtirishni nazarda tutib, raqamli infratuzilma, elektron hukumat, raqamli texnologiyalar milliy bozori, axborot texnologiyalari sohasida ta’lim va malaka oshirishni rivojlantirish kabi ustuvor yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi.

“Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini muvaffaqiyatli amalga oshirishning eng muhim shartlari sohaning molivayi ta’moti va aholining raqamli savodxonligini oshirishdan iborat. Shunday qilib, hujjatga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi boshqa tegishli davlat organlari bilan birgalikda 2022 yil oxiriga qadar maktabgacha

ta’lim, sog‘liqni saqlash va umumta’lim mакtablarini raqamlashtirishni yakunlash choralarini ko‘radi.

Shuningdek, “Raqamli O‘zbekiston – 2030” boshqa milliy strategik hujjatlar va dasturlarda nazarda tutilgan vazifalar, xususan, 2030 yilgacha bo‘lgan davrda BMT Barqaror rivojlanish maqsadlari bo‘yicha milliy vazifalar hamda 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida belgilangan maqsadlarga erishishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ma’lumki, joriy iylning 28-yanvar kuni qabul qilingan “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi” – inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish; mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish; milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o‘sish sur’atlarini ta’minalash; adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish; ma’naviy taraqqiyotni ta’minalash va sohani yangi bosqichga olib chiqish; milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda umumbashariy muammolarga yondashish; mamlakatimiz xavfsizligi va mudofaa salohiyatini kuchaytirish, ochiq, pragmatik va faol tashqi siyosat olib borish kabi 7 ta ustuvor yo‘nalishlar doirasida keyingi besh yilda erishish kerak bo‘lgan yuzta strategik maqsadlarni o‘z ichiga oladi.

Taraqqiyot strategiyasida ham muhim sohalarni raqamlashtirilishga alohida e’tibor qaratilib, davlat xizmatlari, sud tizimi, huquqni muhofaza qilish organlari, yo‘l harakati boshqaruvi tizimi, sog‘liqni saqlash tizimi, ijtimoiy xizmatlar, bank va qishloq xo‘jaligi tarmoqlari va milliy iqtisodiyotning boshqa asosiy sohalariga yangi texnologiyalarni joriy qilish belgilangan.

Xususan, “Elektron hukumat” tizimini rivojlantirish, elektron davlat xizmatlarining ulushini 100 foizga yetkazish, davlat xizmatlarini raqamlashtirish va ularning 20 foizini xususiy sektorga o‘tkazish, davlat xizmatlarini ko‘rsatishda shaxsni identifikatsiya qilishning Mobile ID tizimini joriy qilish, shuningdek, “Fuqarolarning raqamli pasporti” va «Raqamli idora» loyihalarini amalga oshirish kabi bir qator vazifalar ko‘zda tutilmoqda.

Bundan tashqari, iqtisodiyot tarmoqlarida barqaror yuqori o‘sish sur’atlarini ta’minalash orqali kelgusi besh yilda aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulotni – 1,6 baravar va 2030 yilga borib aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromadni 4 ming AQSh dollaridan oshirish hamda «daromadi o‘rtachadan yuqori bo‘lgan davlatlar» qatoriga kirish uchun zamin yaratish rejalashtirilmoqda.

Shu munosabat bilan raqamli iqtisodiyotni asosiy «drayver» sohaga aylantirib, 2026 yil oxiriga qadar uning hajmini kamida 2,5 baravar oshirish, bunda dasturiy mahsulotlar industriyasi hajmini 5 baravar, ularning eksportini esa 10 baravar oshirib, 500 million AQSh dollariga yetkazish, shuningdek, iqtisodiyotning real sektorida hamda moliya va bank sohalarida ishlab chiqarish va operatsion jarayonlarni raqamlashtirish darajasini 70 foizgacha oshirish belgilangan. Bundan tashqari, shaharlarni raqamlashtirish, qurilish va loyihalashtirish ishlari sifatini oshirish va «Aqli shahar» konsepsiysi doirasida rivojlantirishga ustuvor ahamiyat berilmoqda.

Umuman olganda, raqamli texnologiyalar pandemiyadan keyingi tiklanishda, shuningdek, barqaror iqtisodiyotni qurishda markaziy rol o‘ynaydi. Shu bois

raqamlashtirish va raqamli transformatsiya O‘zbekiston kabi rivojlanayotgan mamlakatlar uchun asosiy ustuvor vazifa bo‘lishi lozim.

Keyingi yillarda O‘zbekiston AKTni rivojlantirish va raqamlashtirish sohasida, ayniqsa, elektron davlat xizmatlarini ko‘rsatishda yuqori natijalarga erishdi. Shu bilan birga, Janubiy Koreya, Rossiya, Estoniya, Xitoy bilan davom etayotgan hamkorlik bilan bir qatorda, Germaniya, Buyuk Britaniya, AQSh, Singapur, Yaponiya kabi texnologik jihatdan rivojlangan davlatlarni mamlakatning IT-sektoriga jalb qilish, xalqaro hamkorlarning geografiyasini diversifikatsiya qilish muhim ahamiyatga ega. Raqamli ekotizimga, IT infratuzilmasiga va elektron xizmatlarga investitsiyalar milliy iqtisodiyotni yanada modernizatsiya qilish va barcha sohalarda inklyuziv o‘sishni jadallashtirishga xizmat qiladi.

1.2 Raqamli iqtisodiyotning bugungi holati: muammo va yechimlar

Raqamli iqtisodiyot tushunchasi ilk bor 1990-yillarda Yaponiya inqirozi davrida yapon professori tomonidan qo‘llanilgan. 1995-yil Yevropada Don Tapskotning “Цифровая экономика: обещание и опасность в эпоху сетевой разведки” asari va 1995-yil Nikolas Negroponte (Masachusetts, AQSh) ning tadqiqot ishida qo‘llanilgan. Avvalo shuni ta’kidlash kerakki, raqamli iqtisodiyot o‘zaro bog‘liq bo‘lgan ishlab chiqarish va boshqaruv jarayonlarining zanjiridan iborat bo‘lib, uning ajralmas elementi zanjirlararo (insonlararo, mashinalararo, bulutlar orqali, data markazlararo) raqamli texnologiyalar yordamida amalga oshiriladigan ma’lumot almashinishdir. Raqamli iqtisodiyot dasturining asosiy maqsadlari yoritib berilgan. Raqamli iqtisodiyot - bu xo‘jalik faoliyatini yuritish bo‘lib, bunda ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatishdagi asosiy omil raqamlar ko‘rinshidagi ma’lumotlar bo‘lib, katta hajmdagi axborotlarni qayta ishlash va shu qayta ishlash natijasini tahlil qilish yordamida har xil turdag'i ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish, texnologiyalar, qurilmalar, saqlash, mahsulotlarni yetkazib berishda oldingi tizimdan samaraliroq yechimlar tatbiq qilishdir. Boshqacha qilib aytgancha, raqamli iqtisodiyot bu onlayn xizmatlar ko‘rsatish, elektron to‘lovlar amalga oshirish, internet savdo, kraudfanding va boshqa turdag'i sohalarni raqamli kompyuter texnologiyalarini rivojlanishi bilan bog‘langan faoliyatdir. Raqamli iqtisodiyot – iqtisodiy resurslar taqchilligi sharoitida raqamli texnologiyalar yordamida amalga oshiriladigan va boshqariladigan iqtisodiy faoliyat. Har qanday iqtisodiy tizim oldida turgan asosiy muammo bu resurslar taqchilligi bilan bog‘liq raqamli iqtisodiyotda ham asosiy e’tibor ushbu muammoni hal qilishga qaratilmog‘i lozim.

Raqamli iqtisodiyotning quyidagi afzallikkari ajratiladi:

- mehnat unumdarligini 40 %gacha oshirishi taxmin qilinadi;
- raqamli iqtisodiyot juda katta miqdordagi mashina o‘qishi mumkin bo‘lgan ma’lumotlarni (raqamli ma’lumotlar) to‘plash, foydalanish va tahlil qilish qobiliyatiga ega;

- onlayn platformalar orqali sotiladigan yangi ish shakllarining yuzaga kelishi;
- raqamli transformatsiya maxsus xizmatlar uchun savdo infrastrukturasining o‘zgarishi;
- sanoat mahsulotlari eksporti endilikda AKT mahsulotlari va xizmatlariga bog‘liq bo‘lib qolmoqda;
- raqamli iqtisodiyot juda qisqa vaqt ichida ulkan boyliklarni keltirib chiqardi, ammo bu boylik oz sonli shaxs, kompaniya va mamlakatlar atrofida to‘plangan. Amaldagi siyosat va qoidalar asosida ushbu traektoriya davom etishi mumkin, lekin bu tengsizlikning kuchayishiga olib keladi.

Shu bilan birga ushbu iqtisodiyotning ayrim ziddiyatli tomonlari ham mavjud.

Ular quyidagilar:

- yangi texnologiyalar, ayniqla sun’iy intellekt, muqarrar ravishda mehnat bozorida katta o‘zgarishlarga olib keladi, jumladan, ba’zi tarmoqlarda ish o‘rinlarining yo‘qolib ketishi va boshqalarida keng miqyosda imkoniyatlar yaratilishiga olib keladi;
- raqamli iqtisodiyot bir qator yangi va turli xil ko‘nikmalar, ijtimoiy himoya siyosatining yangi avlodni, ish va bo‘sh vaqt o‘rtasidagi yangi munosabatlarni talab qiladi;
- raqamli iqtisodiyot, shuningdek, kiberxavfsizlik buzilishlaridan tortib noqonuniy iqtisodiy faoliyatga ko‘maklashish va shaxsiy hayotning maxfiy tushunchalariga qadar yangi xavflarni keltirib chiqaradi.

Raqamli iqtisodiyot deyarli hamma narsaga oid juda katta miqdordagi mashina o‘qishi mumkin bo‘lgan ma’lumotlarni (raqamli ma’lumotlar) to‘plash, foydalanish va tahlil qilish qobiliyatiga asoslangan holda katta tezlikda rivojlanishda davom etmoqda [7]. Masalan, Global Internet Protokol (IP) trafigi, ma’lumotlar oqimi uchun proksi 1992-yilda kuniga 100 gigabaytdan (GB) 2017- yilda sekundiga 45000 Gb dan oshdi va dunyo faqat ma’lumotlarga asoslangan iqtisodiyotning dastlabki kunlaridadir. Shu yo‘sinda 2022-yilga kelib global IPtrafik sekundiga 150,700 Gbaytga yetkazilishi progozoq qilinmoqda.

Ma’lumot to‘plash va undan foydalanishning rivojlanishi va siyosati oqibatlari ma’lumotlar turiga bog‘liq:

- shaxsiy yoki shaxsiy bo‘lman;
- xususiy yoki jamoaviy;
- tijorat yoki davlat maqsadlarida;
- ko‘ngilli, kuzatilgan yoki taxmin qilingan;
- ta’sirchan yoki ta’sirchan bo‘lman

Ma’lumotlar to‘plash, ma’lumotlardan tushunchalarni ishlab chiqarish, ma’lumotlarni saqlash, tahlil qilish va modellashtirishni qo‘llab-quvvatlaydigan

firmalarni o'z ichiga olgan "ma'lumotlar qiymati zanjiri" butunlay rivojlandi. Tannarx berilgan ma'lumotlar raqamli intellektga aylantirilib, tijorat masalalarida foydalanish uchun pulga aylantirilganda shakllanadi. Raqamli platformalar Internetda bir nechta tomonlarni birgalikda harakatlanish uchun birlashtirish mexanizmlarini ta'minlaydi. Tranzaksion platformalar va innovatsion platformalar mavjud bo'lib, tranzaksion platformalar - bu ikki yoki ko'p tomonlama bozor, u turli tomonlar o'rtasidagi almashinuvlarni qo'llab-quvvatlaydigan onlayn infratuzilma. Ular yirik raqamli korporatsiyalar (Amazon, Alibaba, Facebook va eBay singari), shuningdek, raqamli qo'llab-quvvatlanadigan tarmoqlarni (Uber, Didi Chuxing yoki Airbnb) ma'qul ko'radiganlar uchun asosiy biznes modeliga aylandi. Innovatsion platformalar, masalan, operatsion tizimlar (masalan, Android yoki Linux) yoki texnologiya standartlari(MPEG video) shaklida ilova dasturlar va dasturiy paketlar ishlab chiqish uchun kod va kontent ishlab chiqarish uchun muhit yaratadi.

1.3. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yutuqlarni ta'lim sohasiga tadbiq qilinishi

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) yutuqlarini ta'lim sohasiga tadbiq qilish jarayoni ta'lim sifatini oshirish, o'quv jarayonini yanada samarali qilish va zamонави bilimlarni taqdim etishga imkon yaratadi. Quyida AKT yutuqlarining ta'lim sohasiga ta'siri va qo'llanilish yo'llari haqida batafsil ma'lumot keltirilgan.

AKT Yutuqlarining Ta'lim Sohasiga Ta'siri

Onlayn Ta'lim Platformalari

Massive Open Online Courses (MOOCs): Coursera, edX, Khan Academy kabi platformalar orqali o'quvchilar dunyo bo'ylab turli mavzular bo'yicha kurslarni o'tishlari mumkin.

Virtual Maktablar va Universitetlar: Ba'zi ta'lim muassasalari to'liq onlayn ta'lim dasturlarini taklif qiladilar, bu esa talabalar uchun katta qulaylik yaratadi.

Interaktiv O'qitish Usullari

Interaktiv Doskalar (Smartboards): An'anaviy doskalar o'rniغا interaktiv doskalar qo'llanishi darslarni yanada qiziqarli va faol qilish imkonini beradi.

O'yinlashgan Ta'lim (Gamification): O'quvchilarni rag'batlantirish va ularni ta'lim jarayoniga jalg qilish uchun o'yin elementlari qo'llaniladi.

Ta'lim Resurslari va Materiallari

Raqamli Kitoblar va Jurnallar: Talabalar va o'qituvchilar elektron kitoblar va ilmiy jurnallarga oson kirishlari mumkin.

Multimedia Materiallari: Audio, video va animatsiyalar kabi multimedia materiallari ta'lim jarayonini boyitadi va tushunishni osonlashtiradi.

Talabalar va O'qituvchilar O'rtasidagi Hamkorlik

Bulutli Texnologiyalar: Google Drive, Microsoft OneDrive kabi bulutli saqlash xizmatlari orqali hujatlar va materiallar ulashish osonlashadi.

Vebinlar va Videokonferensiyalar: Zoom, Microsoft Teams, Google Meet kabi xizmatlar orqali masofaviy darslar va uchrashuvlar o'tkazish mumkin.

Personalizatsiya Qilingan Ta'lim

Adaptiv Ta'lim Platformalari: Bu platformalar o'quvchilarning ehtiyojlariga moslashadi va ularning individual o'quv rejalarini taklif qiladi.

Sun'iy Intellekt (AI): AI yordamida o'quvchilarning kuchli va zaif tomonlarini aniqlash va ta'lim jarayonini shunga mos ravishda moslashtirish mumkin.

AKT Yutuqlarining Qo'llanilish Yo'llari

Ta'lim Muhitini Raqamlash

Maktablar va universitetlarda raqamli sinflar tashkil etish.

Elektron jurnal va kundaliklar orqali o'quv jarayonini boshqarish.

O'qituvchilarni AKT Bilan Tanishtirish va O'qitish

O'qituvchilarni raqamli vositalar va platformalar bilan ishlashga o'rgatish.

Doimiy ravishda AKT bo'yicha malaka oshirish kurslari tashkil etish.

O'quvchilar uchun AKT Asosida Ta'lim Resurslarini Yaratish

Elektron o'quv materiallari, darsliklar va qo'llanmalarni yaratish.

Multimedia materiallarini ishlab chiqish va ulardan darslarda foydalanish.

Ta'lim Jarayonini Monitoring Qilish va Baholash

Ta'lim jarayonini kuzatish va baholash uchun raqamli tizimlarni qo'llash.

Testlar, imtihonlar va baholash tizimlarini raqamli platformalar orqali o'tkazish.

Masofaviy Ta'limning Kengaytirilishi

Masofaviy ta'lim dasturlarini rivojlantirish va takomillashtirish.

Internet orqali ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirish.

Nazorat savollari

1. Axborot tushunchasi ta'rif bering?.
2. "Ta'limni axborotlashtirish" nima?
3. Raqamli texnologiyalar nima?.
4. Sun'iy intellekt bu...?
5. Raqamli iqtisodiyot va tashkil etuvchilar nima ?

2-Mavzu: Masofaviy ta'lim usullari va texnologiyalari.

Ma'ruza mashg'ulotining texnologik xaritasi (2 – mashg'ulot)

O'quv soati: 2 soat	Tinglovchilar soni: 20-25 nafar
O'quv mashg'ulotining shakli:	Ma'ruza mashg'ulot
Ma'ruza rejasi:	<p>2.1. Masofaviy ta'limni o'qitish tizimlari va amaliy imkoniyatlari</p> <p>2.2. Masofaviy ta'lim platformalari va ulardan foydalanib, ta'lim jarayonlarini tashkil etish.</p>
O'quv mashg'ulotining maqsadi:	Amaliy mashg'ulotning maqsadi tinglovchilarga masofaviy ta'lim usullari va texnologiyalari pedagogik faoliyatida foydalanishni olish bilimlarni shakllantirish.
Pedagogik vazifalar:	<p>O'quv natijalari:</p> <p>Amaliy mashg'ulotdan so'ng tinglovchilar bilishi lozim:</p> <p>1. Masofaviy ta'lim usullari va texnologiyalari pedagogik faoliyatida o'rni;</p> <p>2. Masofaviy ta'lim usullari va texnologiyalari pedagogik faoliyatida amalda foydalanishni;</p> <p>3. Masofaviy ta'lim texnologiyalari, multimedia vositalaridan pedagogik faoliyatida foydalanish ahamiyati va qo'llanish usullari haqida bilishi kerak.</p>
Ta'lim metodlari:	Amaliy mashg'ulot, munozara, tezkor so'rov.
Ta'lim vositalari:	Ma'ruzalar matni, kompyuter texnologiyalari, video proektor, prezentatsiyalar.
Ta'lim shakli:	Frontal, guruhlarda ishlash.
O'qitish shart-sharoitlari:	Texnik vositalardan foydalanishga va kichik guruhlarda ishlashga mo'ljallangan auditoriya.
Monitoring va baholash.	Nazorat savollari.

2-Mavzu: Masofaviy ta'lim usullari va texnologiyalari

Reja:

- 2.1. Masofaviy ta'limni o'qitish tizimlari va amaliy imkoniyatlari
- 2.2. Masofaviy ta'lim platformalari va ularidan foydalanib, ta'lim jarayonlarini tashkil etish.

Tayanch iboralari: Masofaviy ta'limning turlari. Virtual ta'lim tizimi. Masofaviy ta'limning texnologiyasi. Zamonaviy masofaviy ta'lim asosiy elementlarni.

2.1. Masofaviy ta'limni o'qitish tizimlari va amaliy imkoniyatlari

O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi Qonuni, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi asosida mamlakatimizda ta'lim-tarbiyani uzluksiz tizimni tashkil etish bo'yicha islohiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Bunda masofali ta'lim o'rni behad ahamiyatlidir.

Tiziminining an'anaviy ta'lim usulidan farqi uning katta imkoniyatlarga ega ekanligida. Bunday ta'lim tizimida ta'lim oluvchining qaerdaligidan qat'iy nazar ta'lim jarayonini samaradorligini oshirishga imkon bo'ladi.

Masofali ta'lim axborot-kommunikatsiya texnologiya (kompyuterlar, telekommunikatsiya, multimedia) vositalari va ilmiy asoslangan o'qitish usullarini qo'llab, ta'lim olish shaklidir. O'qitishning bu shakli ta'lim oluvchilarga mos ta'lim predmetini erkin tanlash, ta'lim beruvchi bilan muloqot qilish sharoitlarini ta'minlaydigan an'anaviy, yangi axborot kommunikatsiya texnologiyalariga asoslanib, o'qitish jarayoni ta'lim oluvchining kaerdaligi va vaqtga bog'liq bo'limgan holda amalga oshiriladi. Ta'lim oluvchi o'quv muassasasiga qatnamay, ta'lim beruvchi yoki ta'lim muassasasidan doimiy maslahat olib ta'lim olish imkoniyatiga ega.

Masofali ta'lim mazmuni, uning afzallik tomonlari tizimini quyida afzalliklarini ko'rsatish mumkin:

- ana'anaviy ta'lim usulida ta'lim oluvchi faqat berilgan materialni o'qiydi. Masofali ta'limda esa, ta'lim oluvchining o'zi axborotlar omboridan kerak bo'lган ma'lumotlarni qidirib topish hamda qayta ishlab tajriba ortirish va o'z tajribalarini boshqa ta'lim oluvchilar bilan elektron tarmoqlari orqali ma'lumot almashish imkoniyatlariga ega bo'ladi;

- masofali ta'lim usuli millionlab ta'lim oluvchichilarga, ayniqsa, ishlab chiqarishdan ajralmasdan ta'lim olayotgan ta'lim oluvchilarga juda keng sharoit yaratib beradi;

- statistik ma'lumotlar shuni ko'rsatmoqdaki, masofali ta'lim usuli ham ananaviy ta'lim kabi unumlidir.

Masofali usulda ta’lim olayotgan ta’lim oluvchilarning ustunlik tomoni shundaki, ular eng yaxshi va sifatli didaktik materiallar hamda salohiyatlari ma’ruzachilar bilan ta’minlanadilar. Ushbu usul yordamida ta’lim oluvchichilar internet tarmog‘i orqali “jahon bo’ylab sayohat” qilishlari mumkin.

Sport ta’limi mutaxassislari masofali ta’lim tizimi orqali malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash uchun: o’quv-usuliy adabiyot, egallagan bilimlarini nazorat qilish tizimi va tashkiliy ish shakllari kabi elementlar orasida qat’iy bog‘lanish bo’lishi zarur.

Zamonaviy texnologiyalarning hayotga keng joriy etilayotganligi, ayniqsa bu jarayonlarning axborot almashinuv tizimiga ham keng qamrovda kirib kelayotganligi vaziyatni tubdan yangilamokda. Oqibatda hozirgi avlodning ma’naviy ehtiyojlari ham tez o’sib borayapti. Ularni aqliy qobiliyatlarini rivojlantirish va o’qish motivlarini shakllantirishda ta’lim beruvchidan pedagogik bilimdonlik, pedagogik tajriba, ijodiy izlanuvchanlik hamda o’z ustida tinimsiz ishlashi bilan birga zarur axborot vositasi va ta’lim usullaridan oqilona o’rinli foydalanish mashg‘ulotning samarali tashkil etilishini ta’minlaydi. Shundagina o’quv jarayonining sifat va samaradorligi oshadi.

Ta’lim hamda ta’lim berishning uslub va usullari sifatini oshirishga yo’naltirilgan yangi, eng samarali omillar orasida masofaviy ta’lim kabi muhim bo’g’inni ajratib ko’rsatish mumkin. Ta’limning bunday ko’rinishi nafaqat axborot kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi yutuqlarni, balki zamonaviy pedagogika sohasidagi yutuqlarni ham o’zida aks ettiradi.

Bugungi kunda masofaviy ta’limda quyidagi zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalar qo’llanilmoqda, ya’ni elektron pochta, ijtimoiy tarmoqlar, videokonferensiya tizimlari, Web-serverlar, mediaserverlar, aloqa tizimlari va boshqalar. Masofaviy ta’lim mamlakatimiz aholisining keng qatlamlariga ko’rsatiladigan ta’lim xizmatlarining majmuasi sifatida aniqlanib, u o’quv axborotlarini masofada almashinuvini ta’minlaydigan eng maqbul zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan. Ta’limning an’anaviy shaklidan farq qilgan holda masofadan turib ta’lim berish axborot bazasini anchagina boyitish, ta’lim oluvchi bilan ta’lim beruvchi o’rtasidagi o’zaro munosabatni jadallashtirish, ta’limning uslubiy ta’minlanishini boyitish imkoniyatini beradi.

Masofaviy ta’limni tashkil etish bo’yicha ishlarni quyidagi yo’nalishlar bo’yicha olib borish maqsadga muvofikdir:

- masofaviy ta’limda ishtirok etuvchilar bilan olib boriladigan tashkiliy va o’quv uslubiy ishlar;
- masofaviy ta’limda qo’llaniladigan axborot kommunikatsiya texnologiyalar bilan tanishish, o’rganish va kerakli texnik imkoniyatlarga ega bo’lgan kompyuter va dasturiy majmuani yaratish bo’yicha ishlar;

- masofaviy ta'lim uchun o'quv uslubiy materiallarni yaratish bo'yicha ishlar;
- masofaviy ta'limda qo'llaniladigan o'quv materiallarini yaratish texnologiyasini o'rganish va uni joriy qilish bo'yicha ishlar.

Masofaviy ta'limning eng asosiy elementlaridan biri elektron darsliklar yaratilishi hisoblanib, ular mashg'ulotlarning noan'anaviy tashkil etilishini ta'minlaydi.

Masofali ta'limda yuqori faollikni elektron darslik va qo'llanmalar ta'minlashi kerak. Ular ta'lim oluvchilar uchun ta'lim berish tizimi vazifasini bajarishi kerak. Ta'lim tizimini tubdan isloh qilishda ta'lim tizimi zamon talablariga javob bera oladigan o'quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratish zaruriyatini ko'ndalang qilib ko'yemoqda. Ana shunday vazifalar qatorida o'quv adabiyotlarining zamona viy avlodini yaratish alohida ahamiyatga molikdir. Chunki taraqqiyotning hozirgi bosqichi bir qator xususiyatlari bilan farq qilibgina qolmasdan, unga mos bo'lган talablarni ro'yobga chiqarishni ham taqozo qilmoqda.

2.2. Masofaviy ta'lim platformalari va ulardan foydalanib, ta'lim jarayonlarini tashkil etish.

Moodle – inglizcha so'zlarning abbreviaturasi bo'lib Modular Object Oriented Dynamic Learning Environment - modulli ob'ektga yo'naltirilgan dinamik o'qitish muhiti deb tarjima qilinadi. Tizim asosan o'qituvchi(lar) va talaba(lar) o'rtaida o'zaro (bilim olish) munosabatini tashkillashtirishga yo'natirilgan. Moodle avtori - Martin Dougiamas. Kursning yakunlashi bilan Computer Science and Education yo'nalishi bo'yicha universitetni yakunlab doktorlik dissertatsiyani tayyorlab yoqlagan (Ph.D.). Doktorlik dissertatsiyasining mavzusi: "The use of Open Source software to support a social constructionist epistemology of teaching and learning within Internet-based communities of reflective inquiry" nomlangan.

Moodle PHP dasturlash tilida yozilgan, SQL-ma'lumotlar bazasi asosida ishlaydi (MySQL, PostgreSQL, Microsoft SQL Server va boshq.). Moodle SCO ob'ektlari bilan ishlay oladi va SCORM standartini qanoatlantiradi. Moodle arxitekturasi modulli ishslash prinsipida bo'lganligi sababli, uning imkoniyatlarini qo'shimcha pluginlar orqali kengaytirish mumkin.

Ta'lim(o'qish)ni boshqarish tizimi – o'quv faoliyatini boshqarish tizimining asosi (inglizcha Learning Management System) bo'lib, umumiyl kirish huquqini ta'minlaydigan o'quv on-line materiallarni shakllantirish, boshqarish va tarqatish uchun qo'llaniladi.

Moodle masofaviy o'qitish jarayonini to'la qo'llab-quvvatlash uchun keng doiradagi imkoniyatlarni beradi – o'quv materiallarini turli usullarda berish, bilimlarni tekshirish va o'zlashtirish nazoratini alohida ta'kidlab o'tish maqsadga muvofiq.

Moodle da 15 turdag'i interaktiv o'quv materiallari mavjud bo'lib, ularning soni oshib bormoqda. Kurs yaratuvchisi tizimning bunday imkoniyatidan foydalangan

holda o'qitiladigan fanni talabalarga (bilim oluvchilarga) interaktiv ko'rinishda taqdim etish imkoniyatini yaratadi.

SCORM yoki AICC standart paketlari. Bu o'quv materiallari orqali bilim oluvchining o'rganilayotgan o'quv kontent ustida bajaradigan xarakatlarini tizim (LMS bizning misolimizda Moodle) ga hisobot ko'rinishda yuborib turadi. Masalan bilim oluvchi kontentda mavjud bo'lgan slayd(bet)larning hammasi bilan tanishgan yoki tanishmaganligi, har bir slayd(bet)ni talaba qancha vaqt davomida o'rganganligini, bu standartda (ya'niy SCORM yoki AICC) yaratilgan o'quv kontentni boshqa LMS tizimiga eksport qilish imkoniyati ham mavjud. Hozirgi vaqtda mavjud bo'lgan taniqli mualliflik uskunalarining (authoring tools) ko'pchiligi yaratiladigan o'quv kontentni aynan SCORM yoki AICC standarti ko'rinishda eksport qilish imkoniyati mavjud. LMS tizimlari uchun elektron ta'lim resurslarini aynan SCORM yoki AICC standart paketlari asosida yaratish tavsiya etiladi

Wiki (Viki) – bir nechta foydalanuvchi tomonidan elektron materiallarni qo'shishi, kengaytirishi va o'zgartirish imkoniyatini beruvchi, Veb 2. Konsepsiysi asosida yaratilayotgan hujjat ustida bir vaqtda hamkorlikda ishslash imkoniyatini beradi.

So'rovlар – tizimdagи foydalanuvchilar orasida o'quv maqsadidan kelib chiqqan holda har xil ko'rinishdagi so'rovlarni tashkillashtirish imkoniyatini beradi.

Ma'lumotlar bazasi – o'rganilayotgan fan bo'yicha ma'lumotlar bazasini hamkorlikda yoki yakka tartibda shakllantirish imkoniyatini beruvchi modul.

Glossariy – kursning barcha hujjatlari bo'yicha havolalarni avtomatik tashkil qiladigan ta'riflar ro'yxati. Agar ta'rif glossariyga kiritilgan bo'lsa, u holda agar u kurs matnlarida uchrasa, havola glossariyning yordamchi elementiga avtomatik ravishda ta'minlanadi. Yaratilgan glossariy orqali elektron nazorat turlarini tashkillashtirish imkoniyatini beradi.

Topshiriq – o'qituvchi javobni elektron ko'rinishda olish uchun ishlatish mumkin (ixtiyoiy formatda).

Ma'ruza – har bir sahifasi talaba javob berishi lozim bo'lgan savol bilan tugaydigan sahifalar to'plami. Javobning to'g'rilinga bog'liq holda, talaba keyingi sahifaga o'tadi yoki oldingi sahifaga qaytadi. Bu ta'lim yo'nalishini aniqlashni va o'qitiladigan fan tushunarsiz bo'lib qolmasligini ta'minlaydi. Shu bilan bir qatorda ta'limni individualashtirish imkoniyatini beradi. Bu turdagи o'quv elementi orqali bilim oluvchining shaxsiy tayyorgarligidan kelib chiqqan holda o'rganilayotgan o'quv kursi tizim orqali tanlab beriladi.

Sharh – kurs sahifasidagi ixtiyoriy matn va grafika.

Ish daftari – berilgan mavzu bo'yicha talaba fikrini bildiradigan joy.

Resurs – avtomatik tasvirlanadigan turli fayllarni yuklash va tasvirlash vositasi. Masalan, ma'ruza audioyozuvini yuklashda u mediapleyr sifatida tasvirlanadi.

Seminar – qatnashchilar bir-birining ishini baholaydigan topshiriq.

Testlar – turli variantli testlar to’plami. Savollar bir nechta variantli javoblardan, to’g’ri/noto’g’ri tanlovdan, qisqa matnli javobdan va boshqalardan iborat bo’lishi mumkin.

Forum – forumning 3 ko’rinishi mavjud (savol-javob, hammaning o’z mavzusi, standart muzokara).

Chat – real vaqtdagi muzokara olib borish imkoniyatini beradi.

Tizimning rasmiy internet manzili: <http://www.moodle.org>

Tizim orqali o’quv kursiga kirish ikki hil usulda amalga oshiriladi:

1. Mijoz elektron pochta orqali o’zi qaydnomani to’ldirish yo’li bilan;
2. Administrator orqali qaydnomani to’ldirish.

MOODLE tizimiga yangi kurslarni yaratish, talabalarga tegishli yordamlar va maslahatlar berish ma’suliyatini tyutor (kurs o’qituvchisi) bajaradi.

Kurs o’qituvchisi yaratilajak o’quv kursini qanday kommunikatsiya elementlari (chat, forum) mavjud bo’lishligini o’quv jarayoni qanday traektoriya orqali amalga oshirish jarayonini tashkillashtirish imkoniyatiga ega. Tyutor (o’qituvchi)ning kursni tahrirlash oynasi keltirilgan bo’lib, “Elektron pedagogika”fani misolida o’quv jarayoni tashkillashtirilgan.

The screenshot shows the Moodle LMS interface. At the top, there's a navigation bar with 'E-UNIVERSITET' and 'Admin User'. The main area displays a course titled 'Hafta mavzulari'. On the left, a sidebar lists course elements: Odamlar, Kurs elementlari, Forum bo'yicha qidiruv, Boshqarish, Tahir qilishni yakunlash, O'rnatishlar, Rollarni tayinlash, Baholar, Guruhlar, and Rezerv nusxa olish. The central content area shows two forum sections: 'Forum yangiliklari' and 'Доп. информация'. Below them is a 'Resurs qo'shish...' button. To the right, there's a 'Yangiliklar forumi' section with a post from 'Admin User' dated '2 Jun, 13:11'. Further down are sections for 'Kutilayotgan voqealar' and 'Проекты'. At the bottom, there's a 'Kalendarga o'tish...' button.

Tyutor (o’qituvchi)ning kursni tahrirlash oynasi

O'quv jarayoni 10 xafalik ko'rinishda keltirilgan. Kurs o'qituvchisi har bir o'quv jarayoniga tegishli topshiriqlarni maxsus e'lolar oynasi orqali yoki avtomatik ravishda har bir foydalanuvchining shaxsiy elektron pochtasiga jo'natishi mumkin bo'ladi.

Kurs elementini qo'shish...

Anketa
Chat
Dars
Forum
Glossary
Ma'lumot ombori
Scorm/AICC
So'rov
Test

Topshiriqlar

Fayllarni yuklashni kengaytirilgan shakli
Saytdagi matn(Javob b'Tekst holatida)
Oddiy faylni yuklash
Saytdan tashqaridagi faoliyat(Javob b'Tashqari)

Wiki

Kurs elementini qo'shish...

Kurs elementlarini qo'shish oynasi

Shuningdek kurs o'qituvchisi(tyutori) o'quv jarayonidan kelib chiqqan holda quyida ko'rsatilgan kurs elementlarini har bir haftalik mashg'ulotlariga integratsiyalashtirishi mumkin bo'ladi. Xususan, chat, Anketa, Dars modeli, Forum, Glossary, Ma'lumotlar ombori, Scorm/AICC, So'rovlari, test topshiriqlari va Web2 elementlari bo'lmish Wiki elementlarini kiritish imkoniyatiga ega bo'ladi.



MOODLE tizimida o'quv jarayoniga oid o'zgartirishlarni "Boshqarish" paneli orqali qo'yidagi amallarni bajarish mumkin: kursni tahrirlash, o'rnatishlar, rollarni tayinlash, baholar, guruhlar, kursdan rezerv nusxa olish, kursni tiklash, import, hisobotlar, savollar va kursga oid fayllar shuningdek, foydalanuvchilar haqida ma'lumotlarni olish mumkin bo'ladi.

Kursda o'qituvchi kalendar blokini joylashtirishi mumkin. Kalendarda bugungi kun ramkasi bilan belgilanib, qolgan kunlar har xil rangli bo'lishi.

Har bir foydalanuvchi kalendardan foydalana olishi mumkin, xuddi o'zining kalendaridan foydalangandek. Bu kalendarda belgilangan kunlari va ular haqidagi ma'lumotlar butun kursga ochiq oydin bo'ladi. Undan tashqari bu kalendarda o'qituvchi barchaga tegishli bo'lgan kunlarni ham belgilashi mumkin. Administrator esa bu kalendarga barcha belgilanayotgan va kutilayotgan kunlar xaqida

ma'lumotlarni kiritishi va xabar tarqatish imkoniyatiga ega. Agarda belgilangan ma'lumot har hafta yetkazilishi lozim bo'lsa u holda sozlash paneli orqali bu kunni har haftali qilib saqlab qo'yish lozim.

O'qituvchi uchun har doim ma'lumotlarni kiritib turish shart emas, chunki tizim o'zida belgilangan doimiy xabarlar va ma'lum kunlarni o'zi avtomatik tarzda qo'shib boradi. Agarda ma'lum bir kunda belgilangan ma'lumotni ochish kerak bo'lsa, u holda shu kunga kursorni keltirib tugmachani bosish kifoyadir. Shu zahoti shu kun bilan bog'liq ma'lumotlar ochiladi.

O'quvchilarning muloqoti ham biz yaratgan MOODLE tizimida ko'zda tutilgan bo'lib, u qulay tarzda yuritiladi.

Xabarlar almashinushi alohida blokda berilgan. Unda muloqotchilar Tyutor tomonidan ro'yhatni sozlashi mumkin. Undan tashqari xabarlarni tekshirish, kuzatish va ularni ta'qiqlab qo'yish ham mumkin. Ma'lumotlar almashinushi blokida ma'lumotlar soni va har bir o'quvchining xabarnomalari soni ko'rsatiladi.

MOODLE tizimida o'quvchilari o'quv jarayonini boshlashlari bilan bilan: materiallarni ko'rish, topshiriqlarni bajarish, testda ishtirok etish va barcha harakatlarini hisobga olish uchun batafsil jurnal yurita boshlash funksiyasi ishga tushirilgan.

Электрон педагогика: Barcha ishtirokchilar, Barcha kunlar (UTC+4)				
Ваqt	IP manzil	To'liq ism	Amal	Ma'lumot
Sun 6 June 2010, 08:49 PM	127.0.0.1	Admin User	course report log	Электрон педагогика
Sun 6 June 2010, 08:34 PM	127.0.0.1	Admin User	course view	Электрон педагогика
Sun 6 June 2010, 08:33 PM	127.0.0.1	Admin User	course view	Электрон педагогика
Sun 6 June 2010, 08:19 PM	127.0.0.1	Admin User	course view	Электрон педагогика

Hisobot jurnalining ko'rinishi

Sahifaning yuqori qismida jurnal filtri parametrlarini berish mumkin:

- kurs nomi;
- guruh;
- ishtirokchi;

Mashg'ulot, kursning interfaol elementi yoki resursi.

Agar kursda faollik katta bo'lsa, jurnalda qayd etilgan voqealar bir nechta sahifada joylashishi mumkin. Uni qisqartirish uchun filtrni aniqlashtirish mumkin.

Masalan, faqat guruh emas, balki kursning aniq ishtirokchisi yoki aniq kunni olish mumkin.


Jurnalda quyidagi axborot qayd etiladi:

- voqealari sanasi va vaqt;
- kurs ishtirokchisining IP adresi (manzili);
- kurs ishtirokchisi tomonidan bajarilgan amal;
- qo'shimcha axborot.

Shunday qilib, MOODLE tizimi o'quvchilar faoliyatini kuzatish uchun foydalidir. Hisobot jurnali orqali o'quvchilarning qaysilari kurs materiallarini o'rganmoqda, kimlar esa biror marta ham kursga ko'z tashlamaganligini nazorat qilish mumkin.

GOOGLE CLASSROOM

1. Google hisobingizni yarating.
2. Class.google.com orqali virtual sinf xonasiga kiring.
3. Asosiy sahifada “rol” ni tanlang: o'qituvchilar kurslar yaratadilar va talabalar ularga qo'shilishadi.
4. Kerakli maydonlardan - faqat kursning nomi, boshqa variantlar o'quv jarayonini tizimlashtirishga yordam beradi, masalan, bir nechta bo'limlarni yaratishga yordam beradi.



GOOGLE SLASSROOM da kursni yaratish

Har bir kurs avtomatik ravishda kod oladi, unga ko'ra talabalar keyinchalik “virtual auditoriyasini” topishlari mumkin bo'ladi. Kirish Android va IOS uchun Google Class mobil ilovasida ham mavjud.

1. Kursni yaratib, siz asosiy panelga o'tasiz. Gorizontal menyuda uchta yorliq mavjud:

- 1) “Lenta”, bunda, masalan, Facebook da o'xshashlik bilan barcha yangilanishlar ko'rindigan;

- 2) “Zadaniya” – barcha materiallar bilan;
- 3) “Polzovateli” – unda sinfdoshlar va o’qituvchilar haqida ma’lumotlar mavjud.

The screenshot shows the Google Classroom web interface. At the top, there is a navigation bar with three tabs: 'Лента' (Feed), 'Задания' (Assignments), and 'Пользователи' (Users). The 'Пользователи' tab is highlighted with a red box. Below the navigation bar, the main content area has a blue header with the text 'Сервисы Google' and '1'. It also shows a 'Код курса: gofszou' button. To the right of the header, there are two graduation caps. On the right side of the main area, there are buttons for 'Выбрать тему' (Select topic) and 'Загрузить фото' (Upload photo). The main content area is divided into sections: 'Предстоящие' (Upcoming), 'Ничего сдавать не нужно:' (Nothing to submit), and 'Все задания' (All assignments). Under 'Все задания', there is a card for an assignment from 'Преподаватель Yulya Kalenkova' with a due date of '15:00'. Another card shows a message from 'Yulya Kalenkova' at '14:53' with a note about Google Optimize. There are also three vertical ellipsis icons on the right side of the assignment cards.


GOOGLE dasturida asosiy kurs paneli

Muhokama qilinadigan savollar va mavzular lentada e’lon qilingan, unga kirish qo’lda sozlangan – beparvolik talabalar, masalan, sharhlash funksiyasini o’chirib qo’yishlari mumkin. Shaxsiy Google hisoblarining egalari kuniga 30 tagacha kurslar yaratishi, maksimal 100 ta kursga (kuniga 30 ta) qo’shilishi va kursning eng ko’p 200 ta ishtirokchisiga (shu jumladan o’qituvchilar va talabalarga) kirish huquqiga ega bo’lishi mumkin.

Google o’quv jarayonini ko’p tomonlama qilishga harakat qildi. Rollarni taqsimlashning eng oson usuli: o’qituvchi – talaba. Birinchisi materiallarni joylashtiradi, fayllarni biriktiradi, topshiriqlarni yaratadi, ikkinchisi ma’lumotlar bilan tanishadi, “uy vazifasini bajaradi” va baholar oladi. Agar kerak bo’lsa, har bir bosqichda sharhlar qo’shiladi – masalan, vazifani qaytarish kerak bo’lganda, biron-bir narsani qo’shishni yoki tuzatishni so’rang.

Rollarni taqsimlashning biroz murakkab versiyasi: o’qituvchi, talaba, kurator va admin. Murabbiylar sinfga kirish huquqiga ega emaslar, ammo pochta orqali barcha ma’lumotlarni qabul qilib, talabalarning ish faoliyatini nazorat qilishlari mumkin. Bizningcha, bu birinchi navbatda trening o’tkaziladigan kafedra rahbarlari uchun qulay. Ma’murlar kurslarni ko’radi va domenda ishlaydi, ishtirokchilarni qo’shib olib tashlaydi.


1. Kurs materiallarini qo'shish uchun "Vazifalar" yorlig'iga o'ting. Ushbu sahifadagi ob'ektlarni mavzu bo'yicha guruhlash mumkin, shuningdek qulay tartibda ajratish mumkin.



GOOGLE SLASSROOM da kurs materialini posting

2. Xizmatni Google Docs, Google Disk va Gmail bilan birlashtirish sizga video, matn va rasmlarni joylashtirish uchun imkon beradi – siz interfaol o'qitish usullarining barcha arsenaliga kirish huquqiga egasiz. Kursning nomi, tavsifi, bo'limi, auditoriyasi va mavzusi istalgan vaqtda o'zgartirilishi mumkin. Barcha tarkib avtomatik ravishda Google Diskdagi papkalarga qo'shiladi.

Добавление файлов с Google Диска



GOOGLE dasturidan foydalanish

3. Mashqlar "Vazifalar" yorlig'ida e'lon qilinadi. Bilimlarni sinash uchun bir nechta format mavjud: so'rovnama, test va h.k. Siz biriktirilgan fayllarda qo'shimcha ko'rsatmalar berishingiz, Bo'sh Viktorina shablonidan foydalanishingiz yoki bir

nechta javob variantlari bilan savol yaratishingiz mumkin. Ikkinchi holda, boshqa talabalarning javoblarini sharhlash imkoniyati mavjud, biroz chaqqonlik – va siz haqiqiy miya bo'roniga ega bo'lasiz.

4. Dastur odatiy bo'lib, barcha ishlar bir balli shkalada baholanadi va uning muddatlari ochiq qoladi. Biroq, bitta va boshqa variantni sozlash oson: odatiy besh balli tizimni tanlang, shuningdek daqiqalar va sekundlargacha bo'lgan muddatlarni belgilang.

Задание

Для кого Сервисы Google 1 Все учащиеся

Название
Опыт использования Google Optimize

Инструкции (необязательно)
Расскажите о вашем опыте использования Google Optimize:
1) удалось ли повысить посещаемость и общую удовлетворенность посетителей сайта?
2) как вы тестировали комбинации содержимого сайта?

Баллы 100 Срок сдачи 31 янв., 23:59 Тема Google Optimize

GOOGLE CLASSROOM da maqolalarni postingi

Talabalar topshiriqlarni darsni taqvimida yoki Vazifalar ro'yxati sahifasida ko'rishlari mumkin. Siz hali topshirilmagan va tugallanmagan ikkala tayinlangan vazifalarni ko'rasiz. Bunday holda, talabaga individual topshiriq berilishi mumkin – bu har bir guruh a'zosi ma'lum bir sohaga ixtisoslashgan strategik mashg'ulotlar paytida qulaydir.

Ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish

Hozirda hayotimizni internetsiz, axborotsiz tasavvur qilish qiyin. Yer yuzidagi deyarli har bir inson jahon global tarmoq resurslariga kirish imkoniyatiga ega. Veb-tehnologiyalarning rivojlanishi va ularning zamonaviy jamiyatga ta'siri an'anaviy aloqa yo'naliшlarining o'zgarishiga, Internetda muloqot qilish usullari va shakllarining o'zgarishiga olib keldi. Internet turli shaharlar va mamlakatlardagi odamlar o'rtasida ma'lumot, bilim va muloqotni to'siqsiz uzatish hamda almashish uchun platformaga aylandi.

Ijtimoiy tarmoqlardagi muloqot hozir butun dunyo bo'ylab millionlab odamlarning kundalik hayotining bir qismiga aylandi. Internet odamlarga istalgan vaqtida muloqot qilish imkonini berdi va ijtimoiy tarmoqlar odamlar o'rtasidagi munosabatlarni onlayn o'rnatish, ijtimoiy komponentini faollashtirish imkonini beruvchi o'ziga xos vositadir.

So'nggi paytlarda "ijtimoiy tarmoqlar" dan foydalanish mashhur bo'ldi. Ular haqida eshitmagan odam yo'q. Ijtimoiy tarmoqlar interaktiv ko'p foydalanuvchili veb-sayt bo'lib, uning tarmoq ishtirokchilarining o'zлari kontektlarni to'ldiradi. Sayt - bu umumiy manfaatlar bilan birlashgan foydalanuvchilar guruhi bilan muloqot qilish

imkonini beruvchi avtomatlashtirilgan ijtimoiy muhit. Bularga so'nggi paytlarda faol rivojlanayotgan tematik tarmoq forumlari va boshqalar kiradi.

Ta'lism jarayonida "Ijtimoiy tarmoqlar"dan foydalanish ta'lism beruvchi va ta'lism oluvchi o'rtasida interaktiv hamkorlikni amalga oshirish imkonini beradi. Bunda ma'lumotlarni barchasini "Ijtimoiy tarmoq" serverida arxivda saqlash va uni internetga kirish imkonini bo'lgan istalgan joyda olish imkoniyati mavjud.

Ijtimoiy tarmoq - umumi manfaatlar, umumi sabablar yoki bir-biri bilan muloqot qilish uchun boshqa sabablarga ko'ra bog'langan odamlar jamoasi.

Internetda ijtimoiy tarmoq - bu dasturiy ta'minot xizmati, guruh yoki guruhlardagi odamlarning o'zaro muloqati uchun platforma. Internet nuqtai nazaridan, bu virtual tarmoq, uning foydalanuvchilari, shuningdek, global tarmoq saytlarida ularning manfaatlariga mos keladigan turli foydalanuvchilar va axborot resurslari o'rtasida aloqalarni o'rnatish uchun xizmatlarni taqdim etish vositasi.

Ijtimoiy tarmoqlar va onlayn hamjamiyatlarning shakllanishi World Wide Webning eng katta yutug'i hisoblanadi. "Ijtimoiy tarmoqlar - bu ijtimoiy munosabatlarni qurish, aks ettirish va tartibga solish uchun mo'ljallangan platforma, onlayn xizmat yoki veb-sayt bo'lib, ularning vizual tasvirlardir.

Ta'lism sohasida ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishning asosiy imkoniyatlari:

1. Ijtimoiy tarmoqlarda ijodkor yoshlarni ma'lum bilim yo'naliishiga intilish, shuningdek, ushbu bilimlarni amaliyotda qo'llash jarayonida hamkorlik qilish istagini birlashtiruvchi muayyan guruhrar yoki jamoalar tashkil etish orqali yoshlar bilan ishslashni kengaytirish.

2. Ta'lism oluvchi va ta'lism beruvchilar o'zları uchun qulay vaqtida tarmoqdagi o'quv kontentlarni olish va berish imkonini beradi. Shuningdek, har bir ta'lism oluvchi bilan yakka tartibda ishslash imkoniyati mavjudligi.

3. O'quv kurslardagi axborotlarni o'tkazib yuborilganda ixtiyoriy vaqtida munozaralarda qatnashish va vazifalarni bajarishga imkon beradi.

Ijtimoiy tarmoqlarning asosiy afzallikkleri:

- bepulligi, ya'ni. hech qanday server uchun texnik xizmat ko'rsatish talab qilinmaydi, shuningdek, saytni rivojlantirish uchun pul to'lash shart emas;

– ularning aksariyatida ro'yxatdan o'tish va foydalanish mutlaqo bepul, bu esa pulni tejash imkonini beradi;

– aksariyat hollarda turli xil kontentni, masalan, audio-video fayllar, tasvirlar va h.k.larni saqlash uchun cheksiz disk maydoni taqdim etiladi;

– xakerlik hujumlaridan ishonchli himoya, ma'lumotlarni saqlash ishonchliligi;

– pochta xizmatlari va axborot bildirishnomalarining qulayligi, bu ularni ta'lism oluvchilar bilan muloqot qilishda qulaylik yaratadi;

– o'quv jarayoni kuzatish;

- to'g'ridan-to'g'ri onlayn ishtirop etish imkoniyati va boshqalar.

Ijtimoiy tarmoqlardan o'quv jarayonida foydalanish ma'lumotlar almashinuviga yordam beradi, ta'lim oluvchilarning o'quv faoliyatiga bo'lgan qiziqishini oshiradi, ijodiy qobiliyat va qiziqishni rivojlantirishni rag'batlantiradi. Bu omillarning barchasi bilim va ko'nikmalarни shakllantirishga ijobjiy ta'sir ko'rsatadi.

Yuqoridagi muammolarni axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida o'qituvchilarning malakasini oshirish uchun shart-sharoitlar yaratish, faol foydalanayotgan o'qituvchilarni moddiy va ma'naviy rag'batlantirish orqali hal etish mumkin.



YouTube, LLC-videomateriallar hostingini taqdim etuvchi [vebsayt](#). YouTubedan foyda-lanish qulay va ko'rish osonligi tufayli juda ham mashhur va kirib ko'ruchilar soni ko'pligi bo'yicha jahonda uchinchi o'rinda turadigan saytdir. Saytda video ko'ruchilar soni kuniga 2 milliarddan ortiq hisoblanadi. Saytda professional videolavhalardan tortib, havaskor videolar, videobloglargacha taqdim etilgan.



Telegram¹- bepul dastur, tezkor aloqa almashish vositasidir. Har qanday qurilmalarga o'rnatish mumkin, masalan, kompyuter, smartfon telefon, planshet, televizor shuningdek onlayn versiyalari ham mavjud. Shuningdek, foydalanuvchilar matn, tasvir, video, audio va ko'p turdag'i fayllarni (docx, rar, mp4, mp4 va hokazo), ovozli va video qo'ng'iroqlarni amalga oshirish, kanal va guruhlarda ovozli hamda video muloqotlarda ishtirok etish hamda havolalarni kompyuterdan smartfonga yuborish qulay bo'lgan dastur.

Telegram boshqa messenjerlardan farqli botlar va kanallar yaratish imkoniyati mavjud.

Botlar -Telegram messenjeri dasturining ichidagi foydalanuvchilarning savollariga javob berish, ma'lumot qidirish, mijozlarga maslahat berish imkonini beruvchi dastur. Kanallar - bu unga a'zo bo'lgan cheksiz foydalanuvchilarga xabar yuborish imkonini beruvchi chatlar. Ular blog va yangiliklar tasmasining aralashmasidir.

Kanallar - esa o'zida ko'pgina foydalanuvchilarni jamlab, ularga ma'lumotlar almashish joy. Telegramning rivojlanishi ko'plab ilmiy-ommabop kanallarning paydo bo'lishiga olib keldi. Bu esa ixtiyoriy soha mutaxassislari shu jumladan sport mutaxassislari sport turi bo'yicha alohida shaxsiy kanalini yuritishi hamda faoliyatidagi yangiliklar, fikrlar va yutuqlarini e'lon qilib borish imkoniyatiga ega bo'ldi.

Sport ta'lim jarayonida Telegram messenjerdan foydalanib har bir sport turi bo'yicha alohida chatlarni yaratish bu esa sportda Telegram tarmog'ini targ'ibotchi sifatida yoshlarini jipslashtirish, tarmoqda sportga oid ommabop guruhlari orqali sportni respublikamizda yanada rivojlantirishda bevosita xizmat qiladi.

Nazorat savollari

1. Masovaiy ta'lim tizimiga ta'rif bering?
2. Masovaiy ta'lim tizimining qanday turlarini bor?
3. Moodle platformasi qanday imkoniyatlari mavjud?
4. Google classroom platformasi qanday imkoniyatlari mavjud?
5. Ijtimoiy tarmoq: Undan siz qanday foydalanasiz?



AMALIY MASHG'ULOT MATERIALLARI

1- mavzu. Vebinar, onlayn ma’ruza, “blended learning”, “flipped classroom” texnologiyalarini ta’limdagi imkoniyatlari.

Amaliy mashg’ulotning ta’lim texnologiyasi.

O‘quv soati: 2 soat	Tinglovchilar soni: 20-25 nafar
O‘quv mashg’ulotining shakli:	Amaliy mashg’ulot
Ma’ruza rejasi:	1.1. Vebinar, onlayn ma’ruza 1.2. Vebinarlar translyatsiyasini tashkil etish
O‘quv mashg’ulotining maqsadi:	Vebinar, onlayn ma’ruza, “blended learning”, “flipped classroom” texnologiyalarini ta’limdagi imkoniyatlari pedagogik faoliyatida foydalanishni bilim, ko’nikma va malakalarini takomillashtirishdan iborat.
Pedagogik vazifalar: -Vebinar, onlayn ma’ruza, “blended learning”, “flipped classroom” texnologiyalarini ta’limdagi imkoniyatlari pedagogik faoliyatida foydalanishni -Ish faoliyatida raqamli texnologiyalardan foydalanish jarayonida axborot texnologiyalarini joriy qilishning innovatsion usullari kabi bilim, ko’nikma va malakalarini takomillashtirishdan iborat	O‘quv natijalari: Amaliy mashg’ulotdan so‘ng tinglovchilar bilishi lozim: 1. Vebinar, onlayn ma’ruza tashkil etish; 2.“blended learning”, “flipped classroom” texnologiyalari haqida tushuncha; 3.Raqamli texnologiyalarni ta’limdagi imkoniyatlari pedagogik faoliyatida foydalanish pedagogik faoliyatida foydalanish ahamiyati va qo’llanish usullari haqida bilishi kerak.
Ta’lim metodlari:	Amaliy mashg’ulot, munozara, tezkor so‘rov.
Ta’lim vositalari:	Ma’ruzalar matni, kompyuter texnologiyalari, video proektor, prezentatsiyalar.
Ta’lim shakli:	Frontal, guruhlarda ishlash.
O‘qitish shart-sharoitlari:	Texnik vositalardan foydalanishga va kichik guruhlarda ishlashga mo’ljallangan auditoriya.
Monitoring va baholash.	Nazorat savollari.

1- mavzu. Vebinar, onlayn ma'ruza, "blended learning", "flipped classroom" texnologiyalarini ta'limgagi imkoniyatlari

Reja:

- 1.1. Vebinar, onlayn ma'ruza
- 1.2. Vebinarlar translyatsiyasini tashkil etish

Tayanch iboralari: Vebinar, onlayn ma'ruza. Veb-seminar, vebinar texnologiyalari yordamida turli mavzudagi muzokaralar, onlayn uchrashuvlar, taqdimotlar, tadbirlami olib borish imkoniyati. Translyatsiya o'tkazish xizmati. Onlayn translyatsiya. Bepul vebinar o'tkazish usullari. Ko'p spikerli veb-seminar yoki konferensiya o'tkazish.

1.1. Vebinar, onlayn ma'ruza

Masofaviy ta'lif texnologiyalari bugungi kunda o'qitishning zamonaviy usullarini qo'llash imkoniyatini taqdim etadi. Ta'lif texnologiyalarini o'quv amaliyot jarayonlarida rivojlantirish, axborot aloqa uzatishlarni kengaytirish, ta'linda internet xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarini taqdim qiladi. Masofaviy ta'lif jarayonlarini interfaolligini ta'minlashda Internet texnologiyalar yordamida o'quv jarayonlarni boshqarish orqali pedagogik amaliyotga tatbiq etish mumkin. Bugungi kunda elektron ta'lif texnologiyalardan keng foydalanuvchi ta'lif muassasalarini topish qiyin emas. Ta'lif jarayonlarda o'quv mashg'ulotlarni tashkillashtirishda videoaloqa vositalari yordamida ta'lifning ma'ruza mashg'ulotlarni masofaviy ta'lif texnologiyalariga asoslangan holda tashkil etish vebinar mashg'ulot shaklida o'tkazilishi mumkin bo'lgan ta'lif jarayonidagi yondashuv hisoblanadi.

Vebinar atamasi (inglizcha: webinar - veb-seminar) "veb-texnologiyalar asosida tashkil etilgan seminar" deb tavsiflanadi. Ta'lif amaliyotida pedagogik xodimlar tomonidan turli fan mavzularini onlayn uchrashuvlar, video – seminarlar, taqdimotlarni tashkillashtirish bo'yicha o'quv mashg'ulotlar amalga oshiriladi. Ba'zi masofaviy ta'lif texnologiya yordamida o'tkaziladigan vebinar mashg'ulotlar jonli efir orqali ham amalga oshirish imkoniyati tavsiya etiladi.

Vebinar mashg'ulotni tashkillashtirishda o'qituvchi veb – kameradan foydalanib, tinglovchilar bilan o'quv mashg'ulot olib boradi. O'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi aloqasi masofadan kompyuter monitori orqali boshqariladi.

Veb – seminarlarni tashkillashtirishda tashkilotchi tomonidan maxsus veb – sahifada o'tkazilayotgan brauzer satridagi manzil joylashishi hisobiga vebinar mashg'ulot o'quvchilarning ishtroki ta'minlanadi.

Vebinar mashg'ulotlarning o'quv amaliyotdagi maqsad va vazifalari, o'quv auditorianing tayyorgarlik strategiyalari darajasi bilan ahamiyatlidir:

- Vositalararo strategiya. Vebinar - bilim, ko‘nikma va malakalarning manbaidir hamda pedagogik kompetensiyalarini shakllantirish vositasi sifatida qo‘llaniladi
- Interfaol strategiya. Vebinar mashg‘ulotda nafaqat bilim, ko‘nikma va malakalarni tinglovchiga yetkazish, balki teskari aloqa, ya’ni tinglovchining berilib boriladigan o‘quv – axborotga bo‘lgan munosabatini bilishga ham mo‘ljallangan.
- Taqdimotlararo strategiya. Vebinar mashg‘ulotda asosan muayyan o‘quv fan sohasining mazmuniga tanqidiy munosabat bildirmaslik nazarda tutiladi. Shuningdek, ma’ruzachi tinglovchilardan taqdim etilayotgan o‘quv ma’ruzaga diqqatlik bo‘lishini aytib o‘tadi hamda o‘quv mashg‘ulot ishtrokchilari o‘qituvchini tinglashni boshlaydilar.

Mazkur strategiyalarga asoslanib, pedagogik yonbdashuv va texnologiyalardan foydalanishda vebinarlarning quyidagi turlarini aniqlash mungkin:

1. Qayta aloqa
2. Ma’ruza – taqdimot
3. Tematik – seminar
4. Guruh bo‘lib ishslash
5. Semar – konsultatsiya (maslahat)
6. Amaliy dars: muammo – yechim
7. Trening: Brifing Laboratoriyasi
8. Loyihani himoyalash
9. Veb – konferensiya (onlayn anjuman)

Vebinar mashg‘ulotlarni tashkillashtirish 3 ta bosqich amalga oshiriladi.

- Texnik ta’minot
- Tayyorgarlik
- Vebinarni o‘tkazish

Texnik ta’minot – veb – seminarda ishtrok etishda quyidagi texnik jihozlar kerak bo‘ladi:

Shaxsiy kompyuter yoki noutbuk yordamida monitorda o‘qituvchining ma’ruzasini tomosha qilish bilan vebinarni mashg‘ulotlarda qatnashish uchun Internet aloqa tezligi minimal 256 Kbit/s ni tashkil qilishi maqsadga muvofiq. O‘quv mashg‘ulot davomida videoma’ruzani tomosha qilishda internet tezligi 2 Mbit/s tavsiya etiladi.





Veb – kamera. Shaxsiy kompyuter yoki noutbukka o‘rnatilgan kameradan foydalanish mumkin. O‘rnatilgan kameradan foydalanish USB kabeli orqali o‘rnatilgan tashqi kameraga qaraganda, mashg‘ulot tinglovchisiga o‘quv ma’ruzani kompyuter monitorida qilinayotgan ma’ruzani kuzatib tez va qulay o’rganishda xizmat qiladi. Tashqi kamerani kompyuter monitorining yuqori qism markaziga joylashtirish tavsiya etiladi. Jonli efir vaqtida barcha ishtrokchilar bilan kameradan uzilmagan holatda, vebinor davomida aloqa o‘rnatib turishi lozim. Bunda veb - seminar mashg‘ulotni boshlashdan avval, “Sozlamalar” menyusidan tashqi kamera to‘g‘ri sozlanganligiga ishonch hosil qilish kerak bo‘ladi. Garnitura. Masofaviy ta’lim muhitida vebinor mashg‘ulotlarda asosan eshitish qulqchinlar, mikrofon, ovozli kabi vositalardan foydalanish hisobiga amalga oshiriladi. Vebinor mashg‘ulot uchun tinglovchining atrof – muhitida shovqin bo‘lmasligi lozim.

Aks – sado. “Aks – sado” samaradorligi veb – seminar mashg‘ulot tinglovchilarining mikrofoni ovoz karnaylariga yaqin turgan holatdagina paydo bo‘ladi. Ushbu holat yuzaga kelmasligi uchun mashg‘ulot ovoz kuchaytirgich karnaylarini mikrofondan yiroq tutgan holda minimal darajaga pasaytirish hisobiga amalga oshiriladi.

Dasturiy ta'minot. Vebinor mashg‘ulotda ishtrok etish uchun tinglovchi o‘z shaxsiy kompyuteriga Adobe Flash Player plagini so‘nggi versiyasi, shuningdek, veb – brauzer (Mozilla Firefox, Google Chrome) o‘rnatilishi ta’minlanishi kerak bo‘ladi.

Veb – seminar to‘g‘risida tinglovchiga xabar berish, o‘quvchini vebinor mashg‘ulotga jalb qilishda avvaldan barcha ishtrokchilar ogohlantiriladi. Bu jarayonda vebinor tashkilotchisi tinglovchilarga quyidagi axborotlarni yetkazadi:

- mavzu nomi;
- ma’ruzachilar to‘g‘risida ma’lumot;
- mashg‘ulot sanasi, boshlanish vaqt, vebinor davomiyligi;
- vebinarning maqsad va vazifasi;
- vebinor mashg‘ulot strukturasi haqida qisqacha axborot;
- kutilayotgan natija;

Vebinor mashg‘ulotga tayyorlanish bosqichida ma’ruzachi mashg‘ulot uchun zarur texnik imkoniyatlar hamda vebinor o‘tkazish vaqt, dasturiy ta’minot va uskunalar yaroqligi to‘g‘risida texnik mutaxassislar bilan hamkorlikda tekshirilib olinadi. Veb - seminar mashg‘ulotning asosiy qismida tinglovchilar diqqatini jalb qilish maqsadida mashg‘ulot mavzusi taqdimot slaydlar yordamida kontent bayon qilinadi.

Taqdim qilinayotgan mavzu ma’ruzachi tomonidan bir slayddan ikkinchi slaydga o’tkazishda bilim oluvchilarga ovozli xabar ko‘rinishida yetkaziladi. Shuningdek, asosiy mavzu taqdimotidan so‘ng qo‘srimcha vaqt oralig‘ida o‘quvchi o‘qituvchi bilan muloqot qilish tavsiya etiladi.

Asosan vebinardan davomida ko‘pgina ishtirokchilar Chat paneli yordamida mavzu doirasida qiziqitirgan savollar va fikr – mulohazalarini o‘qituvchiga xabarnoma shaklida yetkazadi. Mazkur holatlarda o‘qituvchi Chat oynasini ochiq yoki vebinardan tashkilotchisiga ko‘rinarli tarzda qoldirishi tavsiya qilinadi hamda bilim oluvchi bergen savol mazmuni ma’ruzachi tomonidan vebinardan mashg‘ulotda baland ovozda eshitirilib o‘qiladi.

Ta’lim jarayonida veb – seminar tinglovchilariga vebinardan to‘g‘risidagi dastur 1 hafta avval yetkazlishi tavsiya etiladi. Biroq, vebinardan mashg‘ulot dasturi haqida eslatma berish maqsadida bir kun yoki bir necha soat avval, shu bilan birga, har bir tinglovchining elektron pochta manzili orqali xabar jo‘natish yordamida ogohlantirish ham mumkin.

Bu vaqt oralig‘ida tinglovchilar tomonidan vebinarda qatnashish uchun tayyorgarlik ko‘rishlari mumkin bo‘ladi. Pedagogik amaliyot shuni ko‘rsatadiki, vebinardan ishtirokchisi avvaldan ro‘yhatdan o‘tganligi orqali vebinarda qatnashish imkoniyati yuqoriq bo‘ladi. Vebinarga tayyorgarlik ko‘rish bosqichida ma’ruzachi tomonidan Internet texnologiyalar, dasturiy ta’midot va uskunalarning holatini tekshirish maqsadida vebinarning texnik mutaxassislarini mashg‘ulotni o‘tkazilishi yuzasidan xabardor qilinadi. O‘qituvchining ish joyi uning kompyuter oynasi bo‘lib, vebinardan mashg‘ulotni tashkillashtirish uchun taqdimotchiga zarur bo‘ladigan Internet aloqasi sifatli, tinglovchilar bilan videoaloqa qilishiga mikrofon, veb – kamera va boshqa uskunlar bilan ta’minlanganligi bo‘lishi lozim. Vebinardan mashg‘ulot boshlanishi arafasida barcha ishtirokchilar tomonidan 15 – 20 minut avval tashkilotchi taqdim qilingan havola orqali Vebinardan maydonchasiga o’tiladi va tayyorgarlik ko‘riladi. Veb – seminarda ma’ruzachi yoki tashkilotchi mashg‘ulot davomida tinglovchilar soni o‘ndan ortig‘ini tashkil etsa, vebinardan ishtirokchilarini boshqarish qiyinchilik uyg‘otsa, tadbir tashkilotchilari yordamchi elementlarga tayanadi:

1. Ishtirokchilar ro‘yhati – Vebinarga ulanganida ishtirokchining ism – familyasi brauzer oynasida namoyon bo‘ladi, ba’zi holatlarda esa tinglovchi vebinardan mashg‘ulotda ishtirok etish maqsadida boshqa nom ostida ham qatnashishi mumkin.

2. Videotasvir – O‘qituvchi barcha tinglovchilarni kuzatishi mumkin, lekin bu vebinardan uzatilayotgan tasvir va ovoz sifatini yo‘qotadi. Shu sababli internet texnologiyalaridan uzatilayotgan axborot yoki ortib borishi vebinardan mashg‘ulotlarda videoaloqa sifatli ta’milanmaydi.

3. Chatda faolligi. Veb – seminar o‘tkazilayotgan vaqtida ma’ruzachi va tinglovchilar o‘tkazilayotgan vaqtida mashg‘ulot uchun tanlangan mavzu doirasida

yozma savollar bilan aloqa qilish, mavzu doirasida fikr – mulohazalarni yozishmalar sifatida talab qiluvchi bir vebinar elementi bo‘lib xizmat qiladi.

1.2 Vebinarlar translyatsiyasini tashkil etish

Vebinarlar (veb-seminarlar) translyatsiyasini tashkil etish zamonaviy texnologiyalar yordamida o‘qitish, biznes uchrashuvlari va muhokamalar o‘tkazishning samarali usuli hisoblanadi. Quyida vebinarlar translyatsiyasini tashkil etish bo‘yicha asosiy bosqichlar va tavsiyalar keltirilgan.

1. Vebinarni Rejalashtirish

Maqsad va auditoriyani aniqlash:

- Vebinarning maqsadini va asosiy mavzusini aniqlang.
- Auditoriya kim ekanligini va ular uchun qiziqarli bo‘lgan mavzularni aniqlang.

Vaqt va sanani belgilash:

- Qulay vaqt va sanani tanlang. Auditoriyaning geografik joylashuvi va vaqt zonalarini hisobga oling.

2. Texnik Tayyorlik

Platforma tanlash:

- Vebinarlar o‘tkazish uchun turli xil platformalar mavjud: Zoom, Microsoft Teams, Google Meet, WebEx, GoToWebinar, va boshqalar.

- Platformaning funksionalligi, qulayligi va narxini hisobga olib tanlang

Texnik talablar:

- Barqaror va yuqori tezlikdagi internet aloqasi.
- Sifatli mikrofon va kamera.
- Agar zarur bo‘lsa, maxsus dasturiy ta’minot yoki qurilmalar (masalan, ekran yozish uchun).

3. Kontent Tayyorlash

Prezentatsiyalar va materiallar:

- Qiziqarli va interaktiv prezentatsiyalar tayyorlang. PowerPoint yoki Google Slides kabi vositalardan foydalanishingiz mumkin.

- Qo’shimcha materiallar (masalan, PDF fayllar, grafiklar) tayyorlang.

Repetitsiya:

- Vebinardan oldin repetitsiya qiling. Bu texnik muammolarni oldini olish va kontentingizni yaxshiroq taqdim etish uchun yordam beradi.

4. Ishtirokchilarni Jalb Qilish

Ro’yxatdan o’tish:

- Ro’yxatdan o’tish shaklini yarating va uni ijtimoiy tarmoqlar, elektron pochta va veb-saytlar orqali tarqating.
- Ro’yxatdan o’tganlarga eslatma xabarlar yuboring.

E'lon qilish:

- Vebinarni reklama qiling: ijtimoiy tarmoqlar, elektron pochta, bloglar va boshqa marketing kanallari orqali.

5. Vebinarning O'tkazilishi

Boshlashdan oldin:

- Texnik tayyorlikni tekshiring: internet aloqasi, mikrofon, kamera, slaydlar va boshqa materiallar.

- Ishtirokchilar uchun yo'riqnomalar bering: savollarni qanday berish, mikrofon va kamerani qanday sozlash.

Vebinar davomida:

- Qiziqarli va interaktiv tarzda o'tkazing. Ishtirokchilarni savollarga jalb qiling, so'rovnomalar o'tkazing.

- Vaqtini samarali boshqaring: asosiy mavzulariga ko'proq e'tibor qarating.

6. Vebinardan Keyingi Bosqichlar

Qayta aloqa:

- Ishtirokchilardan fikr-mulohazalar oling. Bu keyingi vebinarlarni yaxshilash uchun foydali bo'ladi.

- Vebinarning yozuvini va materiallarini ishtirokchilar bilan baham ko'ring.

Tahlil qilish:

- Vebinar statistikalarini o'rganing: ishtirokchilar soni, ular bergen savollar, eng ko'p qiziqqan mavzular.

- Ushbu tahlillar keyingi vebinarlarni rejalashtirishda yordam beradi.

Tavsiya Etilgan Vositalar

Platformalar:

- Zoom: Keng qamrovli funksiyalar va oson foydalanish imkoniyatlari.
- Microsoft Teams: Korporativ muhit uchun qulay, Office 365 bilan integratsiya qilingan.

- Google Meet: Oddiy va tezkor, Google ekotizimi bilan yaxshi integratsiyalangan.

- WebEx: Katta korporatsiyalar uchun mo'ljallangan kuchli vosita.

Prezentatsiya vositalari:

- PowerPoint: Keng tarqalgan va ko'p funksiyali.

- Google Slides: Onlayn, birgalikda ishlash imkoniyatlari bilan.

- Prezi: Interaktiv va vizual jihatdan jozibador prezentatsiyalar uchun.

Ekran yozish va qo'shimcha vositalar:

- OBS Studio: Ekran yozish va translyatsiya qilish uchun bepul dastur.

- Camtasia: Ekran yozish va videolarni tahrirlash uchun kuchli dastur.

Vebinarlarni muvaffaqiyatli o'tkazish uchun yuqoridagi bosqichlarni va tavsiyalarni amalga oshirish orqali siz samarali va foydali onlayn tadbirlarni tashkil qilishingiz mumkin.

Nazorat savollari

1. Vebinarga ta'rif bering?
2. Vebinar o'qitish ta'lim tizimining asosiy qanday imkoniyatlari bor?
3. Vebinar platformalarini qanday turlari mavjud?
4. Zoom platformasi qanday imkoniyatlari mavjud?
5. Google meet dasturining qanday imkoniyatlari mavjud?

2- mavzu. Raqamli texnologiyalar, «bulutli texnologiyalar»ni asosiy komponentlari

O‘quv soati: 2 soat	Tinglovchilar soni: 20-25 nafar
O‘quv mashg’ulotining shakli:	Amaliy mashg‘ulot
Ma’ruza rejasi:	<p>2.1. Ta’lim jarayonlarida “bulutli texnologiyalar”dan foydalanish.</p> <p>2.2. Bulutli texnologiyalardan foydalangan holda o‘quv jarayonini takomillashtirish</p>
O‘quv mashg’ulotining maqsadi:	Raqamli texnologiyalar va “bulutli texnologiyalar” asosiy komponentlarini pedagogik faoliyatida amalda samarali foydalana olish bilimlarni shakllantirish.
Pedagogik vazifalar: - amaliy mashg‘ulot davomida jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari samaradorligini oshirishda ta’lim oluvchi faolligini va uning natijalarini baholashga yordam beradigan bulutli texnologiyalar va axborot texnologiyalarini tanlay olish;	<p>O‘quv natijalari:</p> <p>Amaliy mashg’ulotdan so‘ng tinglovchilar bilishi lozim:</p> <ul style="list-style-type: none"> - Raqamli texnologiyalar, “bulutli texnologiyalar”ni asosiy komponentlari pedagogik faoliyatida foydalanishni; - Ish faoliyatida raqamli texnologiyalardan foydalanish jarayonida axborot texnologiyalarini joriy qilishning innovatsion usullari kabi bilim, ko’nikma va malakalarini takomillashtirishdan iborat
Ta’lim metodlari:	Amaliy mashg‘ulot, munozara, tezkor so‘rov.
Ta’lim vositalari:	Ma’ruzalar matni, kompyuter texnologiyalari, video proektor, prezentatsiyalar.
Ta’lim shakli:	Frontal, guruhlarda ishlash.
O‘qitish shart-sharoitlari:	Texnik vositalardan foydalanishga va kichik guruhlarda ishlashga mo‘ljallangan auditoriya.
Monitoring va baholash.	Nazorat savollari.

2- mavzu. Raqamli texnologiyalar, «bulutli texnologiyalar»ni asosiy komponentlari

Reja:

- 2.1. Ta’lim jarayonlarida “bulutli texnologiyalar”dan foydalanish.
- 2.2. Bulutli texnologiyalardan foydalangan holda o‘quv jarayonini takomillashtirish

Tayanch iborali: Ta’lim jarayonlarida bulutli texnologiyalardan foydalanish, bulutli texnologiyalardan foydalangan holda o‘quv jarayonini vaaxborot ta’lim maydonini rivojlantirish hamda takomillashtirish. Birgalikda kirishni ta’minalash

2.1. Ta’lim jarayonlarida “bulutli texnologiyalar”dan foydalanish.

Bugungi kunda biz bulutli hisoblash (cloud computing) deb ataydigan hisoblash tarmog‘i jadallik bilan rivojlanmoqda. Axborot texnologiyalari sohasidagi Google (GoogleDrive), Yandex (Yandex disk), Microsoft (OneDrive), Apple (iCloud), DropboxInc, Cisco, Oracle va boshqa ko‘plab yirik kompaniyalar bugun o‘z bulutli xizmatlar spektrini kengaytirishga katta e‘tibor qaratishmoqda. Ko‘plab xizmatlar bulutli tarmoqqa kiritilmoqda va foydalanuvchilar ular orasidan o‘ziga kerakli xizmatlarni bulutdan olish imkoniyati yaratilgan. Dunyo miqyosida keng rivojlangan va rivojlanishda davom etayotgan bulutli hisoblash tizimlari O‘zbekistonda ham bugun rivojlanishda davom etmoqda. Masalan, Huawei kompaniyasi bilan hamkorlikda yaratilgan Ma‘lumotlarni qayta ishlash markazi (MQIM) ning ishga tushirilishi O‘zbekistonda ham bulutli xizmatlarni rivojlantirish uchun katta ishlar olib borilayotganligini ko‘rsatadi. Bugungi kunda bulutli hisoblashlar sohasi va ular taqdim etayotgan xizmatlar spektri ham kengayib bormoqda. Xizmatlarning ko‘payishi va qulayligi sababli uning iste‘molchilari soni ham ortmoqda. Bulutli xizmatlarga talablar va murojaatlar ortishi bilan tizimga tushuvchi yuklama miqdori ham ortmoqda. Bulut provayderlari esa o‘z xizmatlarini taqdim etishda quyidagilarni maqsad qilib ko‘yadi:

- Tarmoqning doimiy ishlashini ta’minalash;
- QoS ni ta’minalash va h.k.

O‘zbekistonda bulutli texnologiyalarning rivojlanishi. Bugungi kunda jaxondagi ko‘plab davlatlar qatori O‘zbekistonda ham bulutli texnologiya qo‘llanilishniboshlagan. O‘zbekistonda “O‘zbektelekom” AK “UZCLOUD” ma‘lumotlarni qayta ishlash markazini ishga tushirilgan.

“O‘zbektelekom” AK tomonidan ishga tushirilgan “UZCLOUD” ma‘lumotlarni qayta ishlash markazi O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidentining 2015-yil 6-martdagи “2015-2019 yillarda yo‘l-transport infratuzilmasini va muxandislik

kommunikatsiyalarini modernizatsiya qilish va rivojlantirish dasturi to‘g‘risida” dagi PQ-2313 son Qaroriga va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Axborot – kommunikatsiya texnologiyalarini yanada rivojlantirishga oid qo‘sishma chora tadbirlar to‘g‘risida»gi qarori. 19.02.2018y. №Pq-5349 son Qaroriga muvofiq amalga oshirilgan.

Loyiha bo‘yicha jami Toshkent, Buxoro va Qo‘qon shaxarlarida Ma‘lumotlarni qayta ishlash va saqlash markazlarini yaratish ko‘zda tutilgan. Hozirgi vaqtida Toshkent shahrida Ma‘lumotlarni qayta ishlash va saqlash markazini tashkil etish ishlari amalga oshirilgan. Mazkur loyihadan maqsad Ma‘lumotlarni qayta ishlash va saqlash markazi resurslariga o‘sib borayotgan talabning qondirilishi, texnik imkoniyatlarning kengaytirilishi, shuningdek, bulutli hisoblash bazasida yangi xizmatlarni taqdim etish bo‘lib hisoblanadi. Loyiha doirasida bulutli biznesni boshqarishga mo‘ljallangan ActivePlatfom dasturiy platforma joriy etilgan. ActivePlatfom innovatsion dizayni AT-servislari va Internet buyumlar sohasidagi servislarni boshqarish imkonini beradi. Bulutli servis xizmatlari barcha turlarini ilg‘or texnologiyalar bilan taqdim etish uchun yagona platformaning joriy etilishi yangi ma‘lumotlarni qayta ishlash markaziga mahsulotlar portfelining diversifikatsiyasi imkoniyatlari va «O‘zbektelekom» kompaniyasining bozordagi so‘zsiz ustunligini ta‘minlaydigan keng imkoniyatlarni ochib beradi. Data-markaz joriy konfiguratsiyasi 160 bleyd-server, 1 petabayt sig‘imli ma‘lumotlar saqlash ombori bilan kelajakda 10 petabaytgacha serverlar sonining kengaytirish imkoniyatini taqdim etadi.

MQIM (ma‘lumotlarni qayta ishlash markazining) ishonchliligi darajasi Uptime Institute klassifikatsiyasi bo‘yicha Tier III xalqaro tizimiga muvofiq keladi, ya‘ni MQIM infrastrukturasining rezervlanishi «N+1» formulasi bo‘yicha ta‘minlanadi, bunda ishonchlilik koyeffitsiyenti 99.982(%) foizni tashkil etadi. Bu data-markazi barcha muhandislik tizimostilaridan rezervlanish imkoniyatiga egaligini anglatadi va MQIM ishlarini to‘xtatmasdan ta‘mirlash-profilaktika ishlarini amalga oshirishga imkon beradi.

Yangi O‘zbektelekom MQIM mijozlariga bulutli servislar orasida VPS “Virtual server” xizmatini taqdim etishga tayyor. Mijozlar “bulutda” xususiy infrastrukturani yaratish va tunu kun jaxonning istalgan nuqtasida to‘liq izolyatsiyalangan avtonom infrastrukturaga ulanish imkoniyatiga ega bo‘lish uchun bulutli platforma yordamida MQIM hisoblash quvvatini ijaraga olishlari mumkin.

Bundan tashqari, UZCLOUD mijozlari tadbirkorlarga Internet tarmog‘i vositasida biznesni rivojlantirish imkonini taqdim etadigan veb-hosting xizmatidan foydalanishlari mumkin.

“O‘ZBEKTELEKOM” AK uchun O‘zbekistonda MQIM qurish loyihasi to‘liq Huawei kompaniyasi (infrastruktura, server uskunalar, virtualizatsiya tizimi) bilan hamkorlikda amalga oshirilgan birinchi bulutli data-markaz bo‘lib hisoblanadi.

Loyiha amalga oshirilganidan so‘ng “O‘zbektelekom” AK davlat tashkilotlari va yirik korporativ mijozlar, shuningdek, xususiy shaxslar uchun xizmatlar, shuningdek, biznes doirasini kengaytirib, zamonaviy AKT xizmatlarini taqdim etish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Kerakli fayllarni axborot tashuvchi qurilmalar – disketa, kompakt-disk, fleshka va tashqi xard-disklardan tashqari, hozirda «bulutli» servislarda saqlash kengroq tarqalmoqda. Bu turdagи keng tarqalgan xizmatlar – Yandeks.Disk, Google Drive, Dropbox kabilardan xabaringiz bor. Bu kabi xizmatlarning o‘zbekcha versiyalari ham mahalliy dasturchilar tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, u FileCloud.uz servisidir.

Bulut infrastrukturasi taqdim etadigan xizmatlar

“Bulut” so‘zi axborot texnologiyalar tarafidan ishlatilganda xizmatlarni internet orqali taqdim etuvchi texnologiya, infratuzilma tushuniladi. Ma‘lumotni bir kompyuterdan boshqa joyda, boshqa mamlakatda joylashgan kompyuterga yuborilganda, u ma‘lumot yetib borishi uchun juda ko‘p tarmoqlarni bosib o‘tadi. Bunda ma‘lumot yuboruvchining kompyuteridan chiqib uning provayderi tomon, provayderdan uning tarmoqlari bo‘ylab boshqa tarmoqlardan o‘tib ulkan internet tarmog‘i bo‘ylab yo‘l bosib o‘tadi va mo‘ljallangan kompyuterga yetib boradi.

Bulut infratuzilmasi bir-biri bilan ulangan juda ko‘p, har xil tarmoqlar qurilmalaridan, kommututorlar, marshrutizatorlar, serverlar va boshqa har xil qurilmalardan tashkil topgan bo‘ladi. Mana shu butun boshli infratuzilmani umumiylashtirib bulut deb ataladi. Bulutdan faqatgina ma‘lumot yuborish uchun foydalanilmaydi, balki ma‘lumot almashinushi bulutdan foydalanish imkoniyatlaridan biri xolos. Bundan tashqari bulutda, ya‘ni infratuzilmada joylashgan serverlarda ishlovchi maxsus dasturlar bo‘ladi. Ular bulutda joylashgan dastur xizmatlarini taklif etadi. Bulutli servislarning eng keng tarqalgani bu Dropbox – fayllarni saqlash xizmati, GoogleDocs – ofis ilovalari, SalesForce – CRM hamda ERP tizimlaridir. Bulutli servislardan foydalanish uchun ko‘p hollarda foydalanuvchida internet tarmog‘i va brauzer bo‘lsa bas, ba‘zida esa foydalanuvchi qurilmasiga ushbu servisni ishlatishda qulay bo‘lishi uchun maxsus dastur ilovalar o‘rnataladi. Masalan, Word, Excel dasturlarida qilinadigan ishlarni GoogleDocs orqali bemalol bajarish mumkin, buning uchun kompyuterda ofis ilovalari bo‘lishi shart emas.

Bulut infrastrukturasi taqdim etadigan xizmatlardan yana biri bu ma‘lumotni saqlash xizmati. Bunday xizmatlarga Dropbox, Microsoftning Skydrive va Google drive xizmatlari yorqin misol bo‘la oladi. Bu xizmatlardan tashqari masalan biron bir murakkab jarayonni bajarish uchun kompyuterning resurslari kamlik qilishi mumkin. Bunday holatda bulutdan foydalanish mumkin. Murakkab jarayonlar bulut resurslaridan foydalangan holatda bulutda bajarilish imkoniyati ham mavjud.

Obvibase Google Drive va Dropbox bilan birlashganda buni juda osonlashtiradi. Masalan, yuqoridaq "Tekshirish" ustunidagi fayl ikonkalari Google Drive-da

saqlangan PDF-fayllarni anglatadi va ularni bosish yangi ichki oynada oldindan ko‘rishni ochadi.

